ISNN 3030-3907

2026/4
VOLUME 1

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/4 VOLUME 1

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Kalorimetrik usul asosida arzon sarf o‘lchash datchigini ishlab chiqish va uning ishlash prinsipini tadqiq etish *Mizomov Muhammad Saydulla o‘g‘li* *Ismoilov Ro‘zibek Rajabovich* *Mustafoyev Murtazo Zamon o‘g‘li*	9
2	Arduino asosida tuproq namligiga bog‘liq arzon va ishonchli sug‘orish tizimini ishlab chiqish *Mizomov Muhammad Saydulla o‘g‘li* *Ismoilov Ro‘zibek Rajabovich*	16
3	Etilen oksidi va ammiakdan etanolaminlar sintezi *Qurbonov A.N.* *Beknazarov H.S.*	22
4	Sinxron generatorlarning avtomatik qo‘zg‘atish tizimini interfaol metodlarni qo‘llash orqali o‘qitish va ta’lim samaradorligini oshirish. *Safarov Xoliyor Sayyid Safar o‘g‘li* *Nazarova Rushana Latif qizi*	30
5	Nazariy mexanika asosida bunkerda dukkakli no‘xat poyalarining harakat qonuniyatlari va optimal parametrlarini aniqlash *Pardayev Obid Raximboboevich* *Islomov Muxammad Husniddin o‘g‘li*	42
6	Madaniy meros obyektlarini hisobga olish va ma’lumot yig‘ishning metodologik asoslari *Sh.Y.Sattorov* *J.J.Pirimov* *F.F.Jo‘raqulov*	48
7	Ko‘p qatlamli geoaxborot bazasini loyihalash va yaratish texnologiyasi (geobaza sxemasi, qatlamlar arxitekturasi, aloqalar versiyalash) *Sh.Y.Sattorov* *J.J.Pirimov* *F.F.Jo‘raqulov*	61
8	Doiraviy silindrik qobiqning xususiy buralma tebranishlari *B.F.Yalg‘ashev.* *X.N. Axatov.* *M. Shodiyorova* *S.K.Abduxamidov*	72
9	Age-related features of pregnancy and childbirth: advantages and disadvantages. *Najimova Nazokat Farxodovna* *Azizova Suman Abduraxmonovna*	83
10	Benzinni detanatsion holatini yaxshilash uchun mtbe ustida izlanishlar *Abdiyusupov R.B* *Djalalova Sh.B.* *Nasullaev X.A.*	88
11	Matritsali chastota o‘zgartirgich asosida elektr yuritmani boshqarishning imitatsion modeli. *Jumayev Odil Abdujalilovich* *Arziyev Eldor Izam o‘g‘li*	97
12	Vektor boshqaruvli matritsali chastota o‘zgartirgichlarni tadqiq etish *Arziyev Eldor Izam o‘g‘li*	105
13	Buyrak shamollashini davolovchi shifobaxsh o‘simliklardan to‘plam tayorlash va undan foydalanish tadbirlari *S.A.Sobirjonov*	117
14	Pul oqimlari hisobotini shakllantirish jarayonlari va bosqichlarining nazariy va amaliy asoslari *Axmatova Marjona Xamza qizi* *Raxmonova Yulduz Sharafitdinovna*	122

ISSN 3030-3907

15	Tabiiy gazni qayta ishlash sanoati uchun ingibitorlar ishlab chiqarish texnologiyasining texnik-iqtisodiy tahlili. *Berdiarova Gavkhar Ulug'bek qizi*	127
16	Konvolyutsion neyron tarmoqlar asosida tibbiy tasvirlarga dastlabki ishlov berish algoritmlarini ishlab chiqish va optimallashtirish *Abdukadirova Gulbahor Xomidjonq qizi*	132
17	Dorivor limono't ildizi ekstraktining antiradikallik xususiyatini dpph metoodi bilan aniqlash. *Egamberdiyev Dostonbek Usmonjon o'g'li.* *Atabekova Xurshida*	140
18	Soft-skills ko'rsatgichlari asosida ta'lim yo'nalishlarini aniqlashning mashinaviy o'qitish modeli *Oybek Mallaev* *Jaloliddin Aliev* *Jamoliddin Gazatov* *Otabek Fozilov*	148
19	Leksik sinonimlar omborini word2vec va fasttext modellari yordamida hosil qilish *Khajibaeva Surayyo Makhmudjonovna*	156
20	Okmk oaj sharoitida og'ir yuk ko'taruvchi mashinalarning zararli muhitda ishlovchi va tez yeyiladigan detallarini tadqiq qilish *Umarov Talibjon Umarovich* *Nurmuxamedov Sirojiddin Jalalovich* *Xudoyberdiyev Og'abek Mirzohid o'g'li*	163
21	Nazariy mexanika asosida no'xat dukkagi deformatsiyasi va ajratish kuchini modellashtirilishi *Pardayev Obid Raximboboevich* *Islomov Muxammad Husniddin o'g'li*	169
22	Pulpa konsentratsiyasini aniqlash va arduino orqali texnologik jarayonni avtomatlashtirish *Sabanbayeva Madinabonu Yulayevna*	176
23	Po'lat quvurlarining korroziya tezligiga tuproq agressivligining ta'siri *Rashidova Nilufar Tulkinovna* *Xasanova Maxliyo Xasanovna*	184
24	Tibbiy abortdan keyin metabolik kasalliklarning oldini olish strategiyalari. *Najimova Nazokat Farxodovna* *Ne`matova Guzal Abduvaliyevna*	191
25	Asinxron dvigatellarni holat datchiklari asosida masofadan monitoring va boshqarish tizimini ishlab chiqish *Nizamov Jasurbek Abdushukurovich*	200
26	Optik abonent kirish tarmog'ining o'tkazuvchanlik qobiliyatini baholash usullari *Normatova Dilbar Turgunovna*	213
27	Elektron zanjirlar va mikrosxemotexnikaning konstruktsiyasi va integratsion texnologiyalar *Irisboyev F.B* *Xayrullayev A. I*	224
28	Pul oqimlarini boshqarishda sun'iy intellekt orqali firibgarlikka asoslangan risklarni aniqlash *Ablakulova Shaxnoza G'ayrat qizi* *G'aniyev Ibragim Mamadiyevich*	230
29	Iot and artificial intelligence-based systematic analysis of water resource monitoring and management *Saidov Abdusobirjon Abdurahmonovich* *Raximberdiyev Sanjarbek Alisher o'g'li* *Raximov Giyosbek Khudoyor o'g'li* *Nuraddin Sadili*	239
30	Talab va taklif funksiyalarini matematik modellashtirish va ularni tahlil qilish *Husanov F.O.*	261
31	Zamonaviy tarash mashinalarida sifatli pilta shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar *Qazoqov Farxot Farmonovich* *Sattarova Nodira Nasilloyevna*	268

ISSN 3030-3907

	Sattarov Ziyodulla Soatmurod o'g'li *Beynazarov Shoxrux Baxadirovich*	
32	Zamonaviy tarash mashinalarida pnevmatik tozalagich asbobining muhim o'rni *Qazoqov Farxot Farmonovich* *Sattarova Nodira Nasilloyevna* *Xayitova Ferangiz Ashurovna* *Jabborova Shalola Zafar qizi.*	275
33	Vokal-xor ishida nafas ustida olib boriladigan amaliy ishlarni tashkil etish uslubiyoti. *Raxmonberdiyeva S.M.*	281
34	Optimization of preterm birth prevention in perinatal medicine *Najimova Nazokat Farxodovna* *Xudoynazarova Dilobar Nuriddin qizi*	286
35	Yog' kislotalari fraksiyasi va polietilenpoliaminlar asosida korroziya ingibitorlari olish *Yulduz Sheraliyevna Usmonova* *Niyazov Jasurbek Sherali o'g'li* *Xasan Irgashevich Kadirov*	292
36	Yuqori kuchlanishli havo liniyalarida tojlanish hodisasini monitoring qilishning nazariy asoslari *Tovbayev Akram Nurmonovich* *Tog'ayev Islom Bekpo'lat o'g'li*	301
37	Выбор методологии исследования ударно-изнашиваемых процессов *Акмал Жуманазаров*	310
38	Анализ неровнаты ленты и нити на современной пневмомеханической прядильной машине. *Казоков Ф.Ф.* *Саттарова Н.Н.* *Хайитова Ф.А.* *Сатторов З.С.*	322
39	Buxoro viloyatida qishloq xo'jaligini hududiy ixtisoslashtirish asosida investitsion salohiyatni oshirish yo'llari *Akramova Obida Qosimovna* *Qahorova Shahzoda Negmurod qizi*	329
40	Интенсификация процесса теплообмена в регенеративных теплообменниках с изменённой поверхностью труб *Шамсиев Калибек Сарибаевич*	336
41	Amir temurning jahon dinlariga tolerantlik munosabatlari. *Muratova Marg'uba*	346
42	Osma mexanizmlar yordamida osma pluglarning ravon harakatlanishini ta'minlash va uning samaradorligini tahlil qilish *Xidirov Muso Qaxramon o'g'li* *Otamurodov G'ayrat To'ychiyevich* *Zaxirov Bobomurod Bobonazarovich* *Chuyanov Do'stmurod Shodmonovich* *Irgashev Dilmurod Begmurodovich*	353
43	Faza rotorli asinxron motorni chastotaviy- parametrik boshqaruv tizimi *Zokirova iroda Zakrullayevna*	368
44	O'zbekiston sharoitida nafas yo'llarining surunkali o'pkaviy kasalliklari natijasida o'lim darajasi: 2020–2025 yillar davomida epidemiologik tahlil *Yermanov Rustam Temirovich* *Umarova Navbaxor Furqat qizi*	377
45	O'zbekiston sharoitida homiladorlik va perinatal kasalliklarning epidemiologik xususiyatlari va ularni oldini olish *Yermanov Rustam Temirovich* *Almamadova Sakinabonu Kabul qizi*	384

ISSN 3030-3907

46	Влияние рн кожи на развитие профессионального раздражающего контактного дерматита *Исламов Нурали Хикматович* *Кахрамонов Лазиз Кахрамонович*	392
47	Teri mikrobiotasining xronik yallig‘lanish jarayonlari va atrof-atrofiya rivojlanishidagi roli: molekulyar va immunologik mexanizmlar *Baratova Mavjuda Rayimovna* *Tohirova Jayrona Izzatillo qizi*	399
48	Dermatologik kasalliklarda janus kinaza (jak) ingibitorlari bo‘yicha klinik tadqiqotlarda irqiy va etnik vakillik: sistematik sharh *Baratova Mavjuda Rayimovna*	407
49	O‘zbekistonda dermatologlarga bemorlar qiziqishi so‘nggi 20 yillik internet qidiruvlari va mehnat resurslari tahlili *Islamov Nurali Hikmatovich* *Xoliqov Dilbek Ziyodullo o‘g‘li*	414
50	Led qurilma orqali estetik protseduralar natijasida yuzaga keladigan yallig‘lanish va shishishni fotonik signalizatsiya va klinik bio-modulyatsiya qilish *Islamov Nurali Hikmatovich* *Yoqubov Mirzo Saidbek Asadbek o‘g‘li*	422
51	Atopik dermatit va teri mikrobiomasi: patogenez, xavf omillari va yangi profilaktik yondoshuvlar *Tillakobilov Ismoil Bahodirovich* *Shukurova Shakhzoda Sobitjonovna*	429
52	Sifilis gerpes va boshqa teri yuqumli kasalliklarining dermatologik jihatlari epidemiologiya, patogenez va zamonaviy diagnostika hamda terapiya yondoshuvlari *Tillakobilov Ismoil Bahodirovich* *Muminova Luiza Aminovna*	437
53	Dermatofitozlar va qo‘zg‘aluvchi qo‘ziqorin infektsiyalarining dermatologik jihatlari *Tillakobilov Ismoil Bahodirovich* *Doniyorova Parizoda Husan qizi*	444
54	Atmosfera ifloslanishi va surunkali nafas yo‘llari kasalliklari o‘rtasidagi bog‘liqlik: epidemiologik tahlili *Yermanov Rustam Temirovich* *Gulliyeva Uylduz To‘lqin qizi*	451
55	Kardiometabolik kasalliklarning global va mintaqaviy epidemiologiyasi: yurak-qon tomir kasalliklari va diabetning prevalensiyasi, risk omillari va oldini olish strategiyalari *Yermanov Rustam Temirovich* *Oblaqulov Farrux Davlat o‘g‘li*	458

ISSN 3030-3907

KALORIMETRIK USUL ASOSIDA ARZON SARF O‘LCHASH DATCHIGINI ISHLAB CHIQISH VA UNING ISHLASH PRINSIPINI TADQIQ ETISH

Mizomov Muhammad Saydulla o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti o‘qituvchi-stajyori
E-mail: muhammadmizomov3@gmail.com
Ismoilov Ro‘zibek Rajabovich
Buxoro davlat texnika universiteti o‘qituvchi-stajyori,
E-mail: rozibekismoilov51@gmail.com
Mustafoyev Murtazo Zamon o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti o‘qituvchi-stajyori

Annotatsiya. Ushbu maqolada issiqlik, ya’ni kalorimetrik sarf o‘lchagichlarning ishlash prinsipi, ularning konstruktiv tuzilishi, o‘lchash jarayonining fizik asoslari hamda sanoat amaliyotida qo‘llashga mo‘ljallangan arzon sarf o‘lchash tizimining funksional imkoniyatlari tahlil qilingan. Sarfni aniqlashda oqimni sun’iy ravishda qizdirish va qizdirishdan oldingi hamda keyingi haroratlar farqini o‘lchash usuli asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Shuningdek, kalorimetrik sarf o‘lchagichlarning afzalliklari, kamchiliklari va qo‘llanish istiqbollari yoritilgan. Ishlab chiqilgan arzon sanoat sarf o‘lchash tizimi nazorat-o‘lchov asboblari, harorat datchiklari, mikrokontroller va displey moduli asosida real vaqt rejimida natijalarni kuzatish imkonini beradi.

Kalit so‘zlar. sarf o‘lchagich, kalorimetrik usul, issiqlik balansi, harorat farqi, qarshilik termometri, termojuft, elektr qizdirgich, laboratoriya qurilmasi, Arduino, MAX6675.

Аннотация. В данной статье проанализированы принцип работы тепловых (калориметрических) расходомеров, их конструктивное устройство, физические основы процесса измерения, а также функциональные возможности недорогой системы измерения расхода, предназначенной для применения в промышленности. В качестве основного критерия определения расхода принят метод искусственного нагрева потока и измерения разности температур до и после нагрева. Также рассмотрены преимущества, недостатки и перспективы применения калориметрических расходомеров. Разработанная недорогая промышленная система измерения расхода на основе контрольно-измерительных приборов, температурных датчиков, микроконтроллера и дисплейного модуля позволяет осуществлять мониторинг результатов в режиме реального времени.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: расходомер, калориметрический метод, тепловой баланс, разность температур, термометр сопротивления, термопара, электрический нагреватель, лабораторная установка, Arduino, MAX6675.

Abstract. This article analyzes the operating principle of thermal (calorimetric) flow meters, their structural design, the physical foundations of the measurement process, as well as the functional capabilities of a low-cost flow measurement system intended for industrial applications. As the main criterion for determining the flow rate, the method of artificially heating the flow and measuring the temperature difference before and after heating is adopted. The advantages, disadvantages, and prospects for the application of calorimetric flow meters are also discussed. The developed low-cost industrial flow measurement system, based on instrumentation, temperature sensors, a microcontroller, and a display module, enables real-time monitoring of results.

Keywords: flow meter, calorimetric method, heat balance, temperature difference, resistance thermometer, thermocouple, electric heater, laboratory setup, Arduino, MAX6675.

KIRISH.

Texnologik jarayonlarda suyuqlik, gaz va bug‘ sarfini aniq o‘lchash ishlab chiqarish barqarorligini ta’minlash, energiya resurslaridan oqilona foydalanish va nazorat tizimlarining samaradorligini oshirishda muhim o‘rin tutadi. Sarfni o‘lchash uchun qo‘llaniladigan asboblar umumiy holda sarf o‘lchagichlar deb ataladi. Moddaning ma’lum kanal kesimi orqali vaqt birligi ichida o‘tgan miqdori modda sarfi hisoblanadi. Amaliyotda u massaviy sarf va hajmiy sarf ko‘rinishida ifodalanadi. Sanoatda bosim farqiga asoslangan, o‘zgaruvchan sathli, induksion, ultratovushli, ionli hamda kalorimetrik sarf o‘lchagichlardan foydalaniladi. Ular orasida issiqlik usuliga asoslangan o‘lchagichlar, ayniqsa, kichik va pulsatsiyali sarflarni aniqlashda yuqori sezgirligi bilan ajralib turadi.

ASOSIY QISM. Kalorimetrik sarf o‘lchagichlarning ishlash prinsipi oqimni tashqi energiya manbai yordamida qizdirishga asoslanadi. Oqimga ma’lum miqdorda issiqlik berilganda, qizdirgichdan oldingi va keyingi nuqtalarda haroratlar farqi hosil bo‘ladi. Mazkur farq oqim tezligi va qizdirgich orqali uzatilgan issiqlik miqdoriga bog‘liq bo‘ladi. Issiqlik yo‘qotishlari e’tiborga olinmagan holatda qizdirgich sarflagan energiya bilan oqim tomonidan o‘zlashtirilgan issiqlik o‘rtasida muvozanat yuzaga keladi. Shu asosda moddaning massa sarfini aniqlash mumkin bo‘ladi. Boshqacha aytganda, oqim sarfi qancha katta bo‘lsa, berilgan quvvat ta’sirida hosil bo‘ladigan harorat farqi shuncha kichik bo‘ladi. Aksincha, sarf kichik bo‘lsa, harorat farqi kattaroq kuzatiladi. Bu bog‘lanish issiqlik sarf o‘lchagichning asosiy fizik mazmunini tashkil etadi. Agar

ISSN 3030-3907

oqimning atrof-muhitga bergan issiqligini e'tiborga olmasak qizdiruvchi asbob sarflangan va oqimga uzatilgan issiqlik o'rtasidagi issiqlik balansi tenglamasi quyidagicha bo'ladi:

$$g_t = K \cdot Q_m \cdot C_p \cdot \Delta t \qquad (1)$$

bu yerda, g_t - qizdirirgichning suyuqlik yoki gazga bergan issiqlik miqdori, Vt; K - quvur kesimi bo'yicha haroratning notekis tarqalishiga tuzatish koeffisienti; Q_m - muhitning massa sarfi, kg/s; C_p - muhitning o'zgarmas bosimdagi solishtirma issiqlik sig'imi, J/(kg k); Δt-oqim haroratining qizdirishdan avvalgi va keyingi o'rtacha qiymatining farqi, K.


Kalorimetrik sarf o'lchagichlarda oqimga issiqlik, odatda, elektr qizdirgich orqali beriladi. Bu holda

$$g_t = 0{,}24 \cdot I^2 \cdot R \qquad (2)$$

(1) va (2) ifodalar asosida massa sarfni topamiz:

$$Q_m = \frac{0.24 \cdot I^2 \cdot R}{K \cdot C_p \cdot \Delta t} \qquad (3)$$

Kalorimetrik sarf o'lchagichlar odatda ikki asosiy turga bo'linadi. Birinchi turda sarf qizdirgich iste'mol qilgan quvvat miqdori orqali aniqlanadi va bunda haroratlar farqi doimiy saqlanadi. Ikkinchi turda esa qizdirgichga uzatiladigan quvvat o'zgarmas bo'ladi, sarf esa oqimdagi haroratlar farqi bo'yicha topiladi. Amaliy o'lchashlarda ikkinchi turdagi qurilmalar ko'proq qo'llanadi, chunki ularning konstruksiyasi nisbatan sodda va sanoat sharoitida qulayroq amalga oshiriladi. Shu sababli tadqiq etilgan qurilma ham aynan doimiy quvvat berish va hosil bo'lgan harorat farqini o'lchash tamoyiliga asoslangan.



1-rasm. Kalorimetrik sarf o'lchagich sxemasi.

Bunday qurilmalarda harorat farqini aniqlash uchun, odatda, termojuftlar yoki qarshilik termometrlari qo'llaniladi. Termoparalar qizdirgichdan oldingi va


ISSN 3030-3907

keyingi nuqtalardagi oqim haroratini uzluksiz qayd etib boradi. Prinsipial sxemada joylashtirilgan ikki termopara orasida hosil bo‘ladigan temperatura tafovuti sarfni aniqlashdagi asosiy axborot parametri hisoblanadi. Olingan signallarni solishtirish asosida haroratlar farqi aniqlanadi va shu qiymat orqali oqim sarfi baholanadi. Mazkur yondashuv o‘lchash aniqligini oshirish bilan birga tizimning ishonchli va barqaror ishlashini ham ta’minlaydi.

Kalorimetrik sarf o‘lchagichlarning muhim afzalliklaridan biri ularning yuqori aniqlik sinfiga egaligidir. O‘lchash xatoligi odatda ±0,5–1% oralig‘ida bo‘ladi. Bundan tashqari, o‘lchash diapazonining kengligi, kichik sarflarni aniqlash imkoniyati va pulsatsiyali oqimlarda ham yetarli sezgirlikni saqlab qolishi bu turdagi qurilmalarni amaliy jihatdan qimmatli qiladi. Shu bilan birga, ayrim murakkab jihatlar ham mavjud. Masalan, oqimni isitish uchun zarur elektr quvvatining doimiyligini ta’minlash, berilgan haroratlar farqini avtomatik saqlash va tashqi issiqlik yo‘qotishlarini kamaytirish ma’lum texnik yechimlarni talab qiladi. Shunga qaramay, gazlar sarfini o‘lchashda ushbu usul samarali natija beradi.

Kalorimetrik sarf o‘lchash qurilmasi nazorat-o‘lchov asboblari va avtomatlashtirish vositalari asosida yig‘ilgan. Tizimda ikki nuqtadagi haroratni o‘lchash uchun datchiklar o‘rnatilgan bo‘lib, olingan ma’lumotlar mikrokontroller yordamida qayta ishlanadi. Elektr ulanish sxemasi va dasturiy qismi real vaqt rejimida oqim haroratlari hamda sarf qiymatini kuzatishga mo‘ljallangan. Qurilmada Arduino platformasiga mos dastur qo‘llanilgan bo‘lib, unda LiquidCrystal_I2C kutubxonasi orqali LCD displey boshqariladi, MAX6675 modullari yordamida esa ikki termojuftdan ma’lumot olinadi. Dasturda birinchi datchikdan olingan qiymat oqimning boshlang‘ich haroratini, ikkinchi datchikdan olingan qiymat esa qizdirilgandan keyingi haroratni ifodalaydi. Haroratlar farqi asosida sarf hisoblanadi va natija bir vaqtning o‘zida ham ketma-ket portga, ham LCD displeyga chiqariladi.

ISSN 3030-3907



2-rasm. Elektr ulanish sxemasi

Dasturiy ta’minotning ishlash mantig‘i sodda va samaralidir. Dastlab mikrokontroller ishga tushiriladi, displey faollashtiriladi va datchiklardan o‘qish jarayoni boshlanadi. Keyin har ikki nuqtadagi harorat qiymatlari olinib, ular orasidagi farqdan foydalanilgan holda sarf aniqlanadi. Hisoblangan natija “m^3/s” birlikda ifodalanadi. Ushbu yondashuv qurilmani arzon va samarali sarf o‘lchash datchigi sifatida talqin etish imkonini beradi. Tizim sensorlardan olingan ma’lumotlarni raqamli qayta ishlash va natijalarni displeyga uzatish orqali sarf ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida kuzatishni ta’minlaydi. Shu sababli mazkur yechim sanoat va amaliy sohalarda qo‘llash mumkin bo‘lgan sodda, tejamkor hamda ishonchli sarf o‘lchash vositasi sifatida baholanishi mumkin.

Dasturiy ta’minot.

```
#include <LiquidCrystal_I2C.h>
#include  <Wire.h>
LiquidCrystal_I2C lcd(0x27,  16, 2);

#include "max6675.h"

int thermoDO = 7; //  SO
int thermoCS = 6; // CS
int thermoCLK = 5; //  SCK
int thermoDO2 = 10; // SO2
int thermoCS2 = 9; //  CS2
int thermoCLK2 = 8; // SCK2
```


ISSN 3030-3907

```
    MAX6675 thermocouple(thermoCLK, thermoCS, thermoDO);
MAX6675 thermocouple2(thermoCLK2, thermoCS2, thermoDO2);

void setup() {
  Serial.begin(9600);
  Serial.println("Sarf o‘lchagich");
  delay(500);
lcd.init();
 lcd.backlight();
}

void loop() {

   Serial.print("Tb = ");
   Serial.print(thermocouple.readCelsius());
     Serial.println( );
      Serial.print("To = ");
   Serial.print(thermocouple2.readCelsius());
   Serial.println( );
  float sarf;
      sarf=(((0.24*500)/1000*(thermocouple2.readCelsius()-
thermocouple.readCelsius()))/1.2255);
   Serial.print("Q=");
   Serial.print(sarf);
   Serial.print(" m^3/s");
   Serial.println( );
   delay(2000);
lcd.setCursor(0,0);
  lcd.print("Tb=");
  lcd.print (thermocouple.readCelsius());
  lcd.print(" To=");
  lcd.print (thermocouple2.readCelsius());
  lcd.setCursor(0,1);
  lcd.print("Sarf: Q=");
    lcd.print(sarf);
    lcd.print (" m3/s");
}
```


ISSN 3030-3907

XULOSA. Issiqlik sarf o‘lchagichlar modda sarfini aniqlashning zamonaviy va sezgir usullaridan biri bo‘lib, ularning ishlashi oqimni qizdirish va hosil bo‘lgan haroratlar farqini o‘lchashga asoslanadi. Ushbu usul, ayniqsa, gaz sarfini aniqlashda yuqori aniqlik, keng o‘lchash diapazoni va kichik sarflarni qayd etish imkoniyati bilan ajralib turadi. O‘tkazilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, bunday tizimlar sanoat va amaliy sohalarda qo‘llash mumkin bo‘lgan arzon, sodda va samarali sarf o‘lchash datchigi sifatida muhim ahamiyatga ega. Harorat datchiklari, elektr qizdirgich, mikrokontroller va displey moduli birgalikda ishlashi natijasida sarfni real vaqt rejimida kuzatish va hisoblash imkoniyati yaratiladi. Shu bois issiqlik asosida ishlovchi mazkur yechim iqtisodiy jihatdan maqbul, texnik jihatdan qulay va ishonchli sarf o‘lchash vositasi sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Suyuqlik va gaz sarfini o‘lchash bo‘yicha o‘quv qo‘llanma.
2. TIIAME o‘quv materiali. “Kalorimetrik sarf o‘lchagichlar” mavzusi.
3. Karabekova D.Zh. va boshqalar. Issiqlik oqimi o‘lchagichlarining asosiy xususiyatlari.
4. Ortikov E. Sanoat pechlarida gaz sarfini boshqarish tizimlarini takomillashtirish.
5. Gulyamov Sh.M., Ortiqov E.E. Suyuqlik va gaz oqimini o‘lchash jarayonini modellashtirish.
6. García et al. Insertion calorimetric flowmeter for liquids with multiple temperature sensors.
7. Abdul B. va boshqalar. MEMS asosidagi gaz sarf o‘lchagichlar.

ISSN 3030-3907

ARDUINO ASOSIDA TUPROQ NAMLIGIGA BOG‘LIQ ARZON VA ISHONCHLI SUG‘ORISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Mizomov Muhammad Saydulla o‘g‘li
Buxoro davlat texnika universiteti o‘qituvchi-stajyori
E-mail: muhammadmizomov3@gmail.com
Ismoilov Ro‘zibek Rajabovich
Buxoro davlat texnika universiteti o‘qituvchi-stajyori,
E-mail: rozibekismoilov51@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada tuproq namligini nazorat qilish asosida ishlovchi, Arduino platformasiga tayangan arzon va ishonchli sug‘orish tizimini ishlab chiqish masalasi yoritiladi. Sug‘orish jarayonini an’anaviy usulda boshqarish ko‘pincha ortiqcha suv sarfi, energiya yo‘qotilishi va inson omiliga bog‘liq xatolarga olib keladi. Shu sababli tuproqning joriy namlik holatini aniqlab, suv berishni avtomatik boshqaradigan mikrokontrollerli yechimlar qishloq xo‘jaligida katta amaliy ahamiyat kasb etmoqda.

Kalit so‘zlar: Arduino, tuproq namligi, avtomatik sug‘orish, aqlli qishloq xo‘jaligi, rele moduli, suv nasosi, namlik sensori, past xarajatli tizim, suvni tejash, mikrokontroller.

Аннотация. В данной статье рассматривается разработка недорогой и надежной системы орошения на основе платформы Arduino, работающей на основе контроля влажности почвы. Традиционные методы управления орошением часто приводят к чрезмерному потреблению воды, потерям энергии и человеческим ошибкам. Поэтому решения на основе микроконтроллеров, которые определяют текущее состояние влажности почвы и автоматически регулируют полив, имеют большое практическое значение в сельском хозяйстве.

Ключевые слова: Arduino, влажность почвы, автоматическое орошение, интеллектуальное сельское хозяйство, релейный модуль, водяной насос, датчик влажности, недорогая система, экономия воды, микроконтроллер.

Abstract. This article discusses the development of a low-cost and reliable irrigation system based on the Arduino platform, which works on the basis of soil moisture control. Traditional irrigation management often leads to excessive water consumption, energy loss, and human error. Therefore, microcontroller-based solutions that detect the current soil moisture status and automatically control watering are of great practical importance in agriculture.

Keywords: Arduino, soil moisture, automatic irrigation, smart agriculture, relay module, water pump, moisture sensor, low-cost system, water saving, microcontroller.

ISSN 3030-3907

KIRISH.

Qishloq xo‘jaligida suv resurslaridan oqilona foydalanish bugungi kunda eng muhim vazifalardan biridir. Sug‘orish vaqtini va hajmini noto‘g‘ri belgilash natijasida suvning ortiqcha sarflanishi, o‘simlik ildiz zonasida namlikning me’yoridan oshib ketishi yoki aksincha, suv tanqisligi sababli hosildorlikning pasayishi kuzatiladi. FAO ma’lumotlariga ko‘ra, sug‘orishni tuproqdagi mavjud namlik va ekinning suv talabi bilan bog‘liq holda tashkil etish suv samaradorligini oshirishning muhim shartidir. Shuningdek, “precision irrigation”, ya’ni aniq boshqariladigan sug‘orish texnologiyalarining markaziy komponentlari sifatida tuproq namligi sensorlari, meteorologik kuzatuv vositalari va qaror qabul qilish tizimlari ko‘rsatiladi. Bu esa tuproq namligi asosida avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlarini ishlab chiqish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb ekanini ko‘rsatadi.


ASOSIY QISM. Zamonaviy aqlli sug‘orish tizimlarida yuqori aniqlikdagi sanoat uskunalari bilan bir qatorda arzon mikrokontrollerli platformalardan ham keng foydalanilmoqda. Arduino oilasiga mansub boshqaruv platalari narxining nisbatan pastligi, dasturlash muhiti soddaligi, ko‘plab analog va raqamli interfeyslarning mavjudligi hamda prototiplash uchun qulayligi sababli ta’lim, laboratoriya va amaliy qurilmalarda keng tarqalgan. Arduino UNO R3 platasida ATmega328P mikrokontrolleri, 14 ta raqamli pin, 6 ta analog kirish, 16 MHz takt chastotasi mavjud bo‘lib, u namlik sensori signallarini qabul qilish va nasosni boshqarish uchun yetarli funksional imkoniyat beradi. Arduino‘ning analogRead() funksiyasi esa UNO kabi AVR platalarda 10-bitli ADC orqali analog signalni raqamlashtirish imkonini beradi, bu tuproq namligi sensoridan kelayotgan kuchlanishni monitoring qilishda asosiy rol o‘ynaydi. Tuproq namligi sensorlari bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlar arzon datchiklar va professional datchiklar orasida narx va aniqlik bo‘yicha muayyan almashinuv mavjudligini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, ko‘plab amaliy vazifalar uchun past xarajatli sensorlar to‘g‘ri kalibrlash va mos algoritm bilan ishlatilganda yetarli darajada foydali natija berishi mumkin. Avtomatlashtirilgan sug‘orish tizimlari bo‘yicha dala sharoitidagi tadqiqotlarda esa tuproq namligi ma’lumotlarini uzluksiz kuzatish va qayta aloqa mexanizmi asosida sug‘orishni boshqarish suvni ancha maqsadli taqsimlash imkonini berishi ko‘rsatilgan. Demak, arzon, mahalliy sharoitda yig‘iladigan va sodda texnik xizmat talab qiladigan tizim ishlab chiqish kichik xo‘jaliklar uchun dolzarb yechim bo‘lishi mumkin.

Ushbu ishning maqsadi tuproq namligi qiymatiga bog‘liq ravishda suv uzatishni avtomatik boshqaradigan, Arduino asosida qurilgan arzon va ishonchli sug‘orish tizimining funksional modelini ishlab chiqish va uning ishlash tamoyilini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Bunda asosiy e’tibor tizimning oddiyligi, kam

ISSN 3030-3907

quvvat sarfi, komponentlarning bozorda mavjudligi, dasturiy boshqaruvning soddaligi va amaliy qo‘llashga mosligiga qaratiladi. Taklif etilayotgan yechim suvdan foydalanish samaradorligini oshirish, inson omiliga bog‘liq xatolarni kamaytirish va sug‘orishni real holatga mos ravishda tashkil etishga xizmat qilishi kerak. Bu maqsad precision irrigation tamoyillari va Arduino asosidagi amaliy boshqaruv tizimlari rivojlanish yo‘nalishlari bilan mos keladi.

Taklif etilayotgan tizimning apparat qismi Arduino UNO boshqaruv platasidan, tuproq namligi sensoridan, rele modulidan, suv nasosidan, quvvat manbaidan va holatni ko‘rsatish uchun LCD yoki LED indikator blokidan tashkil topadi. Arduino UNO tanlanishining sababi uning apparat jihatdan sodda, ommabop va turli analog datchiklar bilan bevosita ishlash imkoniyatiga egaligidir.



1-rasm sug‘orish tizimini avtomatlashtirish.

Tuproq namligi sensoridan kelayotgan analog signal Arduino‘ning analog kirishiga ulanadi. ADC orqali o‘qilgan qiymat dastur ichida qayta ishlanadi va oldindan o‘rnatilgan minimal namlik chegarasi bilan taqqoslanadi. Agar namlik bu chegaradan past bo‘lsa, rele orqali suv nasosi ishga tushiriladi; agar namlik yetarli darajaga yetsa, nasos o‘chiriladi. Ushbu yondashuv Arduino‘ning analog signallarni o‘qish va tashqi yuklamalarni raqamli pinlar orqali boshqarish imkoniyatlariga to‘liq mos keladi.

Tizim algoritmi oddiy qayta aloqa tamoyiliga asoslanadi. Dastlab mikrokontroller sensor orqali tuproq namligi haqidagi joriy ma’lumotni qabul qiladi. Keyin analog qiymat kalibrlangan chegaralar bilan solishtiriladi. Agar olingan qiymat “quruq” holatga mos kelsa, rele ishga tushadi va nasos orqali sug‘orish boshlanadi. Namlik belgilangan optimal diapazonga yetgach, nasos o‘chiriladi.

Dastur kodi.

ISSN 3030-3907

```
#include <LiquidCrystal_I2C.h>
// LCD (I2C) manzil va o‘lcham
LiquidCrystal_I2C lcd(0x27, 16, 2);
// Pinlar
const int sensorPin = A0;     // Namlik sensori
const int relayPin = 7;       // Rele moduli
// Chegara qiymatlar (kalibrlash kerak!)
int dryValue = 800;   // Quruq tuproq
int wetValue = 300;   // Nam tuproq
// Gisterezis (nasos tez yoqilib-o‘chmasligi uchun)
int lowerThreshold = 600;  // Nasos yoqiladi
int upperThreshold = 450;  // Nasos o‘chadi

bool pumpState = false;
void setup() {
  pinMode(relayPin, OUTPUT);
  digitalWrite(relayPin, HIGH); // Rele OFF (active LOW bo‘lishi mumkin)
  lcd.init();
  lcd.backlight();
  Serial.begin(9600);
}
void loop() {
  int sensorValue = analogRead(sensorPin);
  // Namlikni foizga o‘tkazish
  int moisturePercent = map(sensorValue, dryValue, wetValue, 0, 100);
  moisturePercent = constrain(moisturePercent, 0, 100);
  // Gisterezis bilan boshqaruv
  if (sensorValue > lowerThreshold && !pumpState) {
    digitalWrite(relayPin, LOW); // Nasos ON
    pumpState = true;
  }
  else if (sensorValue < upperThreshold && pumpState) {
    digitalWrite(relayPin, HIGH); // Nasos OFF
    pumpState = false;
  }
  // LCD chiqarish
  lcd.setCursor(0, 0);
```


ISSN 3030-3907

```
    lcd.print("Namlik: ");
  lcd.print(moisturePercent);
  lcd.print("%   ");
  lcd.setCursor(0, 1);
  if (pumpState) {
   lcd.print("Nasos: ON ");
  } else {
   lcd.print("Nasos: OFF");
  }
  // Serial monitoring
  Serial.print("Sensor: ");
  Serial.print(sensorValue);
  Serial.print("  Namlik: ");
  Serial.print(moisturePercent);
  Serial.println("%");
  delay(1000);
}
```

Taklif etilayotgan tizimning dasturiy qismi C/C++ ga yaqin Arduino tilida yoziladi. Unda sensor qiymatini o‘qish, o‘rtacha qiymatni hisoblash, kalibrlangan namlik diapazoniga mos ravishda foizli ko‘rsatkich hosil qilish va nasosni boshqarish bloklari bo‘ladi. Zaruratga qarab tizimga LCD displey qo‘shilib, unda joriy namlik, nasos holati va xatolik indikatorlari ko‘rsatilishi mumkin. Agar loyihani keyingi bosqichda kengaytirish zarur bo‘lsa, unga havo harorati, havo namligi, suv sathi yoki masofaviy monitoring modullari ham qo‘shilishi mumkin. Arduino ekotizimida bunday kengaytirish uchun yetarli dasturiy va apparat resurslari mavjud.

XULOSA. Arduino asosida tuproq namligiga bog‘liq arzon va ishonchli sug‘orish tizimini ishlab chiqish qishloq xo‘jaligida suvdan oqilona foydalanish, sug‘orish jarayonini avtomatlashtirish va ekspluatatsion xarajatlarni kamaytirish nuqtayi nazaridan muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Taklif etilgan yechimning ustun tomoni uning konstruktiv soddaligi, arzon komponentlardan yig‘ilishi, mahalliy sharoitga moslashtirilishi va real vaqtda ishlash imkoniyatidir. Tizim tuproq namligini uzluksiz kuzatib, nasosni avtomatik boshqarish orqali o‘simlikning real suv ehtiyojiga yaqin rejimni shakllantiradi. Shu bilan birga, sensorlarni to‘g‘ri tanlash, tuproq turi bo‘yicha kalibrlash va boshqaruv algoritmini optimallashtirish qurilmaning ishonchliligini oshirishning asosiy shartlari hisoblanadi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Banzi, M. (2011). *Getting Started with Arduino*. O‘Reilly Media.
2. Monk, S. (2017). *Programming Arduino: Getting Started with Sketches*. McGraw-Hill Education.
3. Blum, J. (2013). *Exploring Arduino: Tools and Techniques for Engineering Wizardry*. Wiley.
4. Evans, B. (2011). *Beginning Arduino Programming*. Apress.
5. Jones, H. G. (2004). *Irrigation scheduling: advantages and pitfalls of plant-based methods*. Journal of Experimental Botany.
6. Shock, C. C., et al. (2007). *Soil Water Potential Measurement*. Oregon State University Extension Service.
7. Muñoz-Carpena, R. (2010). *Field Devices for Monitoring Soil Water Content*. University of Florida.
8. Patel, N., & Jain, S. (2016). Arduino Based Smart Irrigation System Using Soil Moisture Sensor. International Journal of Advanced Research.
9. Kumar, A., et al. (2017). Automated Irrigation System Using Arduino. International Journal of Engineering Science.
10. Rawal, S. (2017). IoT Based Smart Irrigation System. International Journal of Computer Applications.

ISSN 3030-3907

ETILEN OKSIDI VA AMMIAKDAN ETANOLAMINLAR SINTEZI

Qurbonov A.N.
Termiz davlat universiteti, Magistrant, Termiz, O‘zbekiston
E-mail: assliddinqurbonov094@gmail.com
Beknazarov H.S.
Termiz davlat universiteti, Magistratura bo‘limi boshlig‘i, Termiz, O‘zbekiston

Annotatsiya. Ushbu maqolada mahalliy xomashyolar asosida amin absorbentlarini sintez qilish jarayoni va ularning tabiiy gazni oltingugurtli birikmalardan tozalashdagi qo‘llanish imkoniyatlari o‘rganilgan. tadqiqotning asosiy e’tibori etilen oksidi va ammiak o‘zaro ta’siri asosida mono-, di- va trietanolaminlarni olish jarayonining texnologik xususiyatlarini aniqlashga qaratilgan. Sintez jarayonining harorat, bosim va reagentlar nisbatiga bog‘liqligi tajribaviy jihatdan tahlil qilinib, mahsulot tarkibiga ushbu omillarning ta’siri aniqlangan. Olingan natijalar asosida etanolaminlar hosil bo‘lish mexanizmi va kinetik qonuniyatlari o‘rganilgan hamda optimal sintez sharoitlari aniqlangan. Infraqizil spektroskopiya yordamida sintezlangan birikmalarning tuzilishi tasdiqlangan va ularning funksional guruhlari aniqlangan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, mahalliy xomashyolar asosida olingan aminlar sanoatda keng qo‘llaniladigan absorbentlar bilan taqqoslanadigan xossalarga ega. Mazkur aminlar tabiiy gaz tarkibidagi vodorod sulfidni samarali ajratib olishda qo‘llanishi mumkin bo‘lib, bu esa gazni tozalash jarayonlarida iqtisodiy samaradorlikni oshirish va import reagentlarga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: aminlar sintezi, etanolaminlar, etilen oksidi, ammiak, reaksiya kinetikasi, mahalliy xomashyo, texnologik parametrlar, absorbentlar.

Аннотация. В данной статье исследуется процесс синтеза аминных абсорбентов на основе местного сырья и их потенциал использования в очистке природного газа от сернистых соединений. Основное внимание в исследовании уделяется определению технологических особенностей процесса получения моно-, ди- и триэтаноламинов на основе взаимодействия этиленоксида и аммиака. Экспериментально проанализирована зависимость процесса синтеза от температуры, давления и соотношения реагентов, а также определено влияние этих факторов на состав продукта. На основе полученных результатов изучены механизм и кинетические закономерности образования этаноламинов, определены оптимальные условия синтеза. Структура синтезированных соединений подтверждена методом инфракрасной спектроскопии, определены их функциональные группы. Результаты исследования показали, что амины, полученные на основе местного сырья, обладают свойствами, сопоставимыми со свойствами

ISSN 3030-3907

широко используемых в промышленности абсорбентов. Эти амины могут быть эффективно использованы для удаления сероводорода из природного газа, что повысит экономическую эффективность процессов очистки газа и снизит потребность в импортных реагентах.

Ключевые слова: синтез аминов, этаноламины, этиленоксид, аммиак, кинетика реакции, местное сырье, технологические параметры, абсорбенты.

Abstract. This article studies the process of synthesizing amine absorbents based on local raw materials and their potential for use in the purification of natural gas from sulfur compounds. The main focus of the study is to determine the technological features of the process of obtaining mono-, di- and triethanolamines based on the interaction of ethylene oxide and ammonia. The dependence of the synthesis process on temperature, pressure and the ratio of reagents was experimentally analyzed, and the influence of these factors on the composition of the product was determined. Based on the results obtained, the mechanism and kinetic laws of the formation of ethanolamines were studied, and optimal synthesis conditions were determined. The structure of the synthesized compounds was confirmed using infrared spectroscopy and their functional groups were determined. The results of the study showed that amines obtained on the basis of local raw materials have properties comparable to absorbents widely used in industry. These amines can be used to effectively remove hydrogen sulfide from natural gas, which will increase the economic efficiency of gas purification processes and reduce the need for imported reagents.

Keywords: amine synthesis, ethanolamines, ethylene oxide, ammonia, reaction kinetics, local raw materials, technological parameters, absorbents.

KIRISH.

Bugungi kunda etanolamin sanoati global kimyo kompleksining muhim qismini egallaydi. Etanolamin ishlab chiqarishning asosiy korxonalari Qo‘shma Shtatlar va G‘arbiy Yevropada joylashgan bo‘lib, bu mintaqalarda kimyo sanoatining yuqori darajada rivojlanishi bilan bog‘liq. Etanolaminlarning umumiy global ishlab chiqarish hajmi taxminan yiliga 1000 ming tonnaga teng, shu jumladan: AQSh yiliga 525 ming tonna, G‘arbiy Yevropa 275 ming tonna, Osiyo va Avstraliya 150 ming tonna, Rossiya 40 ming tonna [1,2].

Etanolaminlarning asosiy qo‘llanilishi neft, gaz va azot sanoatida tabiiy va texnologik gazlarni kislotali aralashmalardan tozalashdir. Ular shuningdek, metallga ishlov berishda, erituvchilar va sirt faol moddalar sifatida, etilendiamin va gerbitsidlar ishlab chiqarishda, to‘qimachilik sanoatida va silliqlashni kuchaytirish uchun tsementlar va pestitsidlar ishlab chiqarishda - emulsifikatorlar sifatida qo‘llaniladi [3].

ISSN 3030-3907

Etanolaminlar ishlab chiqarish uzoq tarixga ega bo‘lib, 19-asrning o‘rtalariga borib taqaladi. Etanolaminlarning ahamiyati ularning erituvchilar va sirt faol moddalar, gerbitsidlar, tsementlar, yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda keng qo‘llanilishidan kelib chiqadi [4].

Dunyo bo‘ylab etanolamin sanoatining hozirgi holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, unga iqtisodiyot duch kelgan o‘tish davrining deyarli barcha muammolari va qiyinchiliklari ta'sir ko‘rsatgan.

Etanolamin ishlab chiqaruvchilari faoliyati biroz barqarorlashdi, ularning jahon kimyo bozoridagi mavqei mustahkamlandi, ijobiy ishlab chiqarish dinamikasi paydo bo‘ldi va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar sifati yaxshilandi.

Ushbu ishda reaksiya aralashmasida mono(di)etanolaminning optimal hosil bo‘lishini ta'minlab, etanolamin ishlab chiqarish sintez bosqichining samaradorligini oshirish vazifa sifatida belgilangan.

Etanolaminlarni qo‘llashning asosiy sohalari quyidagilardir: neft va gaz sanoatida tabiiy va texnologik gazlarni kislotali aralashmalardan tozalash va azot sanoati. Bundan tashqari, u metallga ishlov berishda ishlatiladi, sifatida, etilendiamin va gerbitsidlar ishlab chiqarishda, to‘qimachilik sanoatida, silliqlashni kuchaytirish uchun tsement ishlab chiqarishda, pestitsidlar - emulgatorlar sifatida. 2011-yilda global etanolamin bozorining 30% dan ortig‘i sirt faol moddalar ishlab chiqarishda, gerbitsidlar va boshqa agrokimyoviy moddalar ishlab chiqarishda, gazni tozalashda foydalanishga to‘g‘ri keldi. MEA iste'molining eng yuqori o‘sish sur'atlari etilendiamin, DEA - agrokimyoviy moddalar, TEA - to‘rtlamchi tuzlar ishlab chiqarishda kuzatilmoqda. Bugungi kunda jahon bozorining quvvati yiliga 1,8 million tonnani tashkil etadi. Shundan 32% AQSh, 25% G‘arbiy Yevropa va 20% Xitoyga to‘g‘ri keladi. Sharqiy Yevropa etanolamin iste'molining atigi 2,5% ni tashkil qiladi [5, 6].

Sintez jarayoni atmosfera bosimida, suvli muhitda, 60°C haroratda sodir bo‘ladi, bu esa ushbu bosqichda murakkab asbob-uskunalarga ehtiyojni yo‘q qiladi. Biroq, etanolamin ishlab chiqarish uchun eskirgan va energiya tejamkor bo‘lmagan "suv" texnologiyalaridan foydalanish raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini sezilarli darajada cheklaydi, chunki Rossiyada ishlab chiqarilgan aminlarning katta qismi sifat jihatidan raqobatbardosh emas (suvdan foydalanish etilen oksidining suv bilan yon reaksiyalariga olib keladi va glikollar hosil qiladi). Ushbu jarayonlarning har bir birlik mahsulotiga o‘rtacha energiya va material intensivligi avvalgi jarayonlarga qaraganda 1,5-2 baravar yuqori va jarayon va qayta ishlangan suv iste'moli 20-50% ni tashkil qiladi. Texnologik jarayonlarda avlodlar o‘zgarishi yetakchi mamlakatlarda 7-8 yilga nisbatan 25-30 yil davomida

ISSN 3030-3907

sodir bo‘lmadi. Asosiy vositalarning amortizatsiyasi 60% dan oshadi, uskunalarning esa 75% dan oshadi [7, 8].

Sintez etilen oksidi va ammiakdan suvsiz muhitda 40–70 °C haroratda va 15–35 atm bosimda amalga oshiriladi. Reaksiya aralashmasi ammiak, mono-, di- va trietanolamindan iborat. Ammiak va MEA ning bir qismi jarayonga qayta ishlanadi. Etanolamin ajratish tizimi muntazam qadoqlashga ega uchta vakuum ustunidan iborat: tijorat monoetanolaminini distillash va yakuniy distillash. Monoetanolamin, tijorat dietanolaminini distillash. Tijorat trietanolamin tijorat dietanolamin distillash kolonnasining asosiy mahsulotidir. “Suvsiz” jarayon keyingi mahsulotni tozalash bosqichlari uchun xarajatlarni sezilarli darajada kamaytirdi. 2004-yilda yiliga 10 000 tonna quvvatga ega yangi sanoat etanolamin ishlab chiqarish zavodi tashkil etildi va loyihaviy quvvatga yetkazildi. Mahsulot sifati kompaniyaga global bozorga chiqish va etoksillangan mahsulotlar bozorining 80 foizini egallash imkonini beradi. Bugungi kunda yangi texnologiyadan foydalangan holda ishlab chiqarish quvvati yiliga bir necha ming tonnagacha oshdi [9, 10].

Etanolaminlarning sintezi etilen oksidi va ammiakning katalizator sifatida suv ishtirokida (etilen oksidi massasining 4,0% va 0,5% miqdorida) 11-12 MPa bosim va 115-125 °C haroratda o‘zaro ta'siriga asoslangan.

EKSPERIMENTAL QISM

Etilen oksidi Toshkent kimyo texnologiya ilmiy tadqiqot institutida sintez qilingan bo‘lib, o‘ziga xos efir hidiga ega bo‘lgan juda uchuvchan, rangsiz suyuqlikdir (suyuqlanish harorati 10,7°C; muzl.har. -113,3°C; kritik har. 195,8°C); suv bilan u 7 ta H_2O molekulasiga ega gidrat hosil qiladi (suyuq. har. 12,8°C). Etilen oksidi suv bilan har qanday nisbatda aralashadi; havo bilan u portlovchi aralashmalar hosil qiladi [11].

Etilen oksididan etanolaminlarning sintezi

Bosim o‘lchagich va elektr isitish bilan jihozlangan 250 ml lik reaktorga 50 ml etilen oksidi (to‘g‘ridan-to‘g‘ri etilen oksidi ishlab chiqarish liniyasidan yangi olingan) va 130 ml ammiak quyiladi. Keyin reaktor qopqog‘i maxsus qistirma yordamida mahkam yopiladi. Reaktor 50 ˚C gacha qizdiriladi, bosim esa 8 atm gacha ko‘tariladi. 1 soatdan keyin bosim pasaya boshlaydi, bu vaqtda harorat 80 ˚C gacha ko‘tariladi va yana 2 soat davomida shu haroratda saqlanadi. Olingan reaksiya aralashmasi distillanadi. Monoetanolaminning unumi 52-58%, dietanolaminning unumi 38-40% va trietanolaminning unumi 2-10% ni tashkil qiladi. Etilen oksididan etanolaminlarning umumiy unumi 90% ni tashkil qiladi.

TAHLILNING FIZIK-KIMYOVIY USULLARI

Infraqizil spektroskopiya


ISSN 3030-3907

Tadqiqot jarayonida tuproq agressivligining po‘lat quvurlar korroziya tezligiga ta’siri Elektrokimyoviy tahlil usuli asosida baholandi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlari korroziya jarayonining intensivligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.Xususan, tuproq namligining oshishi elektrolit muhitni kuchaytirib, metall yuzasida anod va katod reaksiyalarining tezlashishiga olib keladi. Shu bilan birga, pH darajasining kislotali tomonga og‘ishi (pH<6) korroziya tezligini sezilarli darajada oshiradi, chunki vodorod ionlari metall yuzasida oksidlanish-qaytarilish reaksiyalarini faollashtiradi. Tuproq tarkibidagi xlorid va sulfat ionlari esa elektrokimyoviy jarayonlarni kuchaytiruvchi asosiy agressiv komponentlar sifatida namoyon bo‘ldi.O‘tkazilgan tahlillar natijasida tuproq agressivligining turli darajalarida korroziya tezligi quyidagi jadvalda ifodalandi:

ISSN 3030-3907

1-jadval.

Tuproq agressivligining korroziya tezligiga ta’siri

№	Tuproq turi	pH darajasi	Namlik (%)	Tuzlar miqdori (%)	Elektr qarshilik (Om·m)	Korroziya tezligi (mm/yil)
1	Past agressiv	7.2–7.8	10–15	0.1–0.3	100–150	0.02–0.05
2	O‘rta agressiv	6.0–7.0	15–25	0.3–0.6	50–100	0.05–0.15
3	Yuqori agressiv	4.5–6.0	25–40	0.6–1.2	20–50	0.15–0.35
4	Juda agressiv	<4.5	>40	>1.2	<20	0.35–0.80

Jadval ma’lumotlari shuni ko‘rsatadiki, tuproqning agressivlik darajasi ortgani sari korroziya tezligi ham keskin oshib boradi. Ayniqsa, past elektr qarshilikka ega, yuqori namlik va yuqori tuz konsentratsiyasiga ega tuproqlarda korroziya jarayoni eng intensiv kechadi.Pedagogik nuqtai nazardan, ushbu natijalar talabalarga korroziya jarayonining real sharoitdagi omillar bilan bog‘liqligini tushuntirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Jadval va tahliliy natijalar asosida o‘quvchilar analitik fikrlash, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash hamda muammoga kompleks yondashish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.Umuman olganda, tadqiqot natijalari tuproq agressivligi po‘lat quvurlar korroziyasining asosiy omili ekanligini tasdiqlab, ularni himoyalashda muhit xususiyatlarini hisobga olish zarurligini ko‘rsatdi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda, po‘lat quvurlarining korroziya jarayonlari ko‘p omilli murakkab hodisa bo‘lib, unda tuproq muhitining agressivlik darajasi hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Tadqiqot natijalari Korroziya tezligi tuproqning fizik-kimyoviy xususiyatlariga, xususan, pH ko‘rsatkichi, namlik darajasi, tuzlar konsentratsiyasi va elektr qarshiligiga bevosita bog‘liqligini tasdiqladi.Olingan ma’lumotlarga ko‘ra, tuproq agressivligi ortgan sari korroziya jarayoni ham keskin tezlashadi, ayniqsa kislotali muhit, yuqori namlik va past elektr qarshilik sharoitida metall yemirilishi intensiv kechadi. Bu esa yer osti quvurlarining xizmat muddatini qisqartirib, texnik xavfsizlik va iqtisodiy samaradorlikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.Shu asosda, po‘lat quvurlarni ekspluatatsiya qilishda tuproq agressivligini oldindan baholash, korroziyaga qarshi himoya choralarini (himoya qoplamalari, katod himoya, material tanlash) qo‘llash zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ayniqsa, kompleks yondashuv asosida fizik-kimyoviy va

ISSN 3030-3907

elektrokimyoviy omillarni hisobga olish korroziya xavfini kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot natijalari po‘lat quvurlarni uzoq muddatli va xavfsiz ekspluatatsiya qilishda tuproq muhitining xususiyatlarini chuqur o‘rganish hamda zamonaviy himoya texnologiyalarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Pourbaix M. *Atlas of Electrochemical Equilibria in Aqueous Solutions*. – Houston: NACE International, 1974.
2. Uhlig H. H., Revie R. W. *Corrosion and Corrosion Control: An Introduction to Corrosion Science and Engineering*. – 4th ed. – New York: John Wiley & Sons, 2008.
3. Fontana M. G. *Corrosion Engineering*. – 3rd ed. – New York: McGraw-Hill, 1986.
4. Jones D. A. *Principles and Prevention of Corrosion*. – 2nd ed. – Upper Saddle River: Prentice Hall, 1996.
5. Romanoff M. *Underground Corrosion*. – Washington: National Bureau of Standards, 1957.
6. Baboian R. *Corrosion Tests and Standards: Application and Interpretation*. – 2nd ed. – West Conshohocken: ASTM International, 2005.
7. Melchers R. E., Jeffrey R. *Marine Corrosion of Steel Structures*. – Cambridge: Woodhead Publishing, 2008.
8. ASTM G57-06. *Standard Test Method for Field Measurement of Soil Resistivity Using the Wenner Four-Electrode Method*. – West Conshohocken: ASTM International, 2006.
9. ISO 8044:2020. *Corrosion of metals and alloys – Vocabulary*. – Geneva: International Organization for Standardization, 2020.
10. ГОСТ 9.602-2016. *Единая система защиты от коррозии и старения. Сооружения подземные. Общие требования к защите от коррозии*. – М.: Стандартинформ, 2016.
11. ГОСТ 9.015-74. *Единая система защиты от коррозии и старения. Методы испытаний на коррозионную стойкость*. – М.: Издательство стандартов, 1974.
12. Li X., Zhao Y. Soil corrosion of underground pipelines: A review // *Journal of Natural Gas Science and Engineering*. – 2016. – Vol. 33. – P. 135–148.

ISSN 3030-3907

TIBBIY ABORTDAN KEYIN METABOLIK KASALLIKLARNING OLDINI OLISH STRATEGIYALARI.

Najimova Nazokat Farxodovna
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi assistenti
E-mail: rayimjanovanazokat@icloud.com
Ne`matova Guzal Abduvaliyevna
Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti 3-son Akusherlik va ginekologiya kafedrasi II kurs klinik ordinatori
Samarqand shahar O`zbekiston.

Annotatsiya. Yuqori va past xavf guruhlariga bo‘lingan 300 ayol ishtirokidagi istiqbolli tadqiqot abortdan keyin metabolik sindromning rivojlanishini aniqladi. Tadqiqotda hayz ko‘rish sikli, holat va shaxsiyat xavotiri, shuningdek, uglevod va lipid metabolizmini hamda zardob oksidlovchi faolligini tavsiflovchi biokimyoviy parametrlar baholandi. Metabolik kasalliklarni tuzatishda magnit lazer terapiyasining samaradorligi tahlili taqdim etildi. Abort qilayotgan ayollar uchun boshqaruv algoritmi taklif qilindi.

Kalit so‘zlar: abort, metabolik sindrom, magnit lazer terapiyasi.

Аннотация. По данным проспективного исследования у 300 женщин, распределенных на группы высокого и низкого риска развития метаболического синдрома, после аборта прослеживается развитие данного синдрома. В ходе исследования оценивали менструальный цикл, уровень ситуативной и личностной тревожности, биохимические показатели, характеризующие углеводный, жировой обмен и окислительную активность сыворотки крови. Представлен анализ эффективности использования магнитолазеротерапии в коррекции метаболических нарушений. Предложен алгоритм ведения женщин, поступивших на искусственное прерывание беременности.

Ключевые слова: аборт, метаболический синдром, магнитолазеротерапия.

Annotation. A prospective study of 300 women, divided into high- and low-risk groups, identified the development of metabolic syndrome after an abortion. The study assessed the menstrual cycle, state and personality anxiety, and biochemical parameters characterizing carbohydrate and lipid metabolism and serum oxidative activity. An analysis of the effectiveness of magnetic laser therapy in correcting metabolic disorders is presented. A management algorithm for women undergoing abortion is proposed.

Key words: abortion, metabolic syndrome, magnetic laser therapy.

KIRISH

ISSN 3030-3907

Klinik amaliyotda ayollarda hayz ko‘rish va reproduktiv disfunktsiya ko‘pincha metabolik kasalliklar majmuasi bilan birga keladi [7, 14, 16]. Bu ko‘pincha bemorning mavjud kasalliklarning rivojlanishiga turtki beradigan ma'lum bir hayot hodisasi bilan anamnestik aloqasi bilan bog‘liq. Metabolik kasalliklar va reproduktiv disfunktsiyaga olib keladigan bunday sabablardan biri homiladorlikning so‘ralgan holda tugashidir [8, 11-13, 17-19].

Abortning salbiy oqibatlari va reproduktiv funktsiyani saqlab qolishning ahamiyati abortdan keyin metabolik kasalliklarning oldini olish va ularni erta tuzatishni dolzarb masalaga aylantiradi. Oldindan shakllangan jismoniy omillar metabolik sindromni (MS) davolashda muhim rol o‘ynaydi. Lazer terapiyasi zamonaviy fizioterapiya usuli hisoblanadi [3, 5, 9]. Uning ta'sir mexanizmlarining ko‘p qirraliligi, protseduralarning invaziv bo‘lmagan tabiati va kam yon ta'siri ushbu usulni abortdan keyin ayollarni kompleks reabilitatsiya qilishda qo‘llash imkoniyatiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi abortdan keyingi davrda magnit lazer terapiyasidan foydalanish samaradorligini baholash va homiladorlikni sun'iy ravishda to‘xtatayotgan ayollarda metabolik kasalliklar ko‘rinishidagi uzoq muddatli asoratlar paydo bo‘lishini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish edi.

TADQIQOT MATERIALLARI VA USULLARI.

Prospektiv tadqiqotda 18 yoshdan 42 yoshgacha bo‘lgan, sun'iy abort qilgan (homiladorlikning 6-12 haftasi) 300 nafar sog‘lom homilador ayollar ishtirok etdi. Ulardan 209 nafarida MS rivojlanish xavfi yuqori, 91 nafarida esa xavf past edi. Yuqori xavf ostida bo‘lgan ayollarda MS rivojlanishining oldini olish uchun magnit lazer terapiyasi (MILTA) va uning metabolik kasalliklarni tuzatishning an'anaviy usullari bilan kombinatsiyasi qo‘llanildi. MS rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan ayollar guruhlarga bo‘lingan: 1-guruh - magnit lazer terapiyasini olgan 65 ayol; 2-guruh - an'anaviy MS terapiyasi bilan birgalikda magnit lazer terapiyasini olgan 69 ayol; 3-guruh - davolanmagan 75 ayol (taqqoslash guruhi). MS rivojlanish xavfi past bo‘lgan ayollar ham guruhlarga bo‘lingan: 4-guruh - magnit lazer terapiyasini olgan 51 ayol va 5-guruh - davolanmagan 40 ayol (nazorat guruhi). Tadqiqotda har bir guruh o‘rtasida va ichidagi tadqiqot parametrlari vaqt o‘tishi bilan (homiladorlik tugashidan oldin va keyin 18 oy) taqqoslandi.

Tadqiqot uchun istisno mezonlari quyidagilarni o‘z ichiga oldi: MS uchun shubhali diagnostika parametrlarining mavjudligi; homiladorlikdan oldin neyroendokrin kasalliklarga chalingan, shuningdek, tana massasi indeksi 30 kg/m2 dan yuqori bo‘lgan bemorlar; tizimli endokrin kasalliklar, og‘ir va dekompensatsiyalangan ekstragenital patologiya, ginekologik kasalliklarning aniq

ISSN 3030-3907

shakllari bilan og‘rigan ayollar; yangi homilador ayollar, shuningdek, tahlil qilingan davrda jarrohlik yoki ginekologik operatsiyalar va aralashuvlarni boshdan kechirgan bemorlar. Tadqiqot va nazorat guruhlarida umumiy somatik va ginekologik kasallanish bir xil edi.

MS tashxisi JSST tavsiyalariga muvofiq qo‘yildi [1, 15]. Faqat MS ning mavjudligi yoki yo‘qligi uning namoyon bo‘lish darajasini baholamasdan qayd etildi.

Tadqiqotda hayz ko‘rishning chastotasi, intensivligi va davomiyligi, shuningdek, hayz ko‘rish paytida bir vaqtning o‘zida kuzatiladigan klinik alomatlarning mavjudligi baholandi. Vaziyat va shaxsiy xavotir darajasi ham aniqlandi [4]. Qon biokimyoviy parametrlarini (xolesterin, yuqori va past zichlikdagi lipoproteinlar - mos ravishda HDL va LDL, triglitseridlar, kreatinin, och qoringa qon glyukozasi va standart glyukoza bardoshlik testi) baholash uchun Labsystems kompaniyasining FP-901-M yarim avtomatlashtirilgan analitik tizimi ishlatilgan. Qon zardobida lipid peroksidlanish parametrlari o‘rganildi: katalaza faolligi, superoksid dismutaza va malondialdegid va dien konjugatlarining miqdori [2, 6, 10].

Statistik tahlil uchun Windows 3.0 versiyasi uchun Statgraphics Plus va Windows 6.0 versiyasi uchun Statistica ishlatilgan. Tavsiflovchi statistika qo‘llanildi va taqqoslangan guruhlar o‘rtasidagi ko‘rsatkichlardagi farqlarning ahamiyati Student t-testi yordamida aniqlandi.

MS ni amalga oshirishning oldini olishga qaratilgan usullar

Magnit lazer terapiyasi. Tadqiqotda MILTA-F-8-01 va Istok qurilmalari tomonidan ishlab chiqarilgan kam energiyali lazer ishlatilgan. Lazer terapiyasi usullari quyidagilarni o‘z ichiga olgan:

1. Vena ichiga qon bilan nurlantirish (geliy-neon lazer). 1,5 Vt quvvatda, 15 daqiqalik ta'sir qilish, har ikki kunda, 10 seans davomida.

2. Bo‘yindagi asab va qon tomir bog‘lamlarini nurlantirish. 4 Vt quvvatda va 500 Gts puls chastotasida, har bir nuqtada 15 soniyali ta'sir qilish, har ikki kunda, 10 seans davomida.

3. Burun ichiga nurlantirish (geliy-neon lazer). Har ikki tomonga 0,02 J/sm² dozada, puls chastotasi 80 Gts, 10 daqiqalik seans, har kuni 8 seans davomida.

Jami 4 ta fizioterapiya kursi o‘tkazildi: dastlabki tashrifda, 3, 6 va 18 oydan keyin.

MS ni davolashda qo‘llaniladigan an'anaviy terapiya quyidagilarni o‘z ichiga oldi: faollik turini hisobga olgan holda ratsiondagi energiya iste'moli va mikroelementlar balansini kuzatish va kunlik kaloriya iste'molini hisoblash; aerob nafas olishning ko‘payishi bilan birga jismoniy faollikni oshirish (suzish havzasi); fizioterapiya (B1 va B6 vitaminlari bilan endonazal galvanizatsiya);

ISSN 3030-3907

multivitaminlar va mikroelementlar kompleksi (Centrum) va sedativlar (valerian). Gormonal dorilar, anorektiklar va termoinduktorlar buyurilmagan.

TADQIQOT NATIJALARI VA MUHOKAMA.

Magnit lazer terapiyasining asosiy ko‘rsatkich - hayz ko‘rish siklining muntazamligiga ijobiy ta'siri aniqlandi. Profilaktik davolanish olmagan MS uchun yuqori xavf ostida bo‘lgan bemorlarda abortdan keyin hayz ko‘rishning buzilishi 53,3% ga ko‘proq qayd etilgan (abortdan oldin ayollarning 38,7% va abortdan keyin 92%). Alohida magnit lazer terapiyasi bilan bunday shikoyatlar chastotasi atigi 24,6% ga oshdi (32,3 dan 56,9% gacha), profilaktik choralar kombinatsiyasini olgan ayollarda esa hayz ko‘rishning buzilishi chastotasi atigi 11,6% ga oshdi (36,2 dan 47,8% gacha). Abortdan 18 oy o‘tgach, magnit lazer terapiyasini olgan ayollarda hayz ko‘rishning buzilishi chastotasi davolanmaganlarga qaraganda 38,2% ga va kombinatsiyalangan davolanishni olganlarda 48% ga past ekanligini aniqladik. Davolash fonida 28-30 kunlik tsiklning o‘rnatilishi, hayz ko‘rish davomiyligining o‘rtacha hisoblanishi va hayz ko‘rish paytida yo‘qotilgan qon hajmining normallashishi qayd etildi.

MILTA dan foydalanish paytida ayollarning hissiy va xulq-atvor sohasida o‘zgarishlar kuzatiladi. Izolyatsiya qilingan magnit lazer terapiyasi ST darajasini 16,8% ga kamaytiradi (1-guruhda 30,2 ± 6,8 ball va 3-guruhda 36,3 ± 7,1 ball, an'anaviy davolash bilan birgalikda ST ni 3-guruhdagi ST ga nisbatan 15,7% ga oshiradi (mos ravishda 2-va 3-guruhlarda 42,0 ± 7,9 va 36,3 ± 7,1 ball), ya'ni magnit lazer terapiyasi ST darajasini pasaytirishda murakkab davolashga qaraganda samaraliroq ($p < 0,05$). 2-guruh bemorlarida doimiy xavotir darajasining oshishi uglevodlar va yog‘lar miqdori kam bo‘lgan parhezga uzoq muddatli rioya qilish zarurati bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin, bu esa endorfinlar va enkefalinlarning boshlang‘ich darajasining pasayishiga olib keladi va nevrotik kasalliklarga olib keladi.

LT darajasi barqarorroq va izolyatsiya qilingan lazer terapiyasi ta'siriga kamroq moyil bo‘ladi. Biroq, magnit lazer terapiyasi kamaytiruvchi parhez bilan birlashtirilganda, LH darajasining oshishiga moyillik ham kuzatiladi (1-guruhda 40,1±6,9 ball, 2-guruhda 44,7±7,2 ball, 3-guruhda 39,0±5,9 ball, 4-guruhda 34,8±6,2 ball va 5-guruhda 29,9±5,0 ball).

Magnit lazer terapiyasining psixoemotsional sohaga ijobiy ta'siri MS rivojlanish xavfi past bo‘lgan guruhlarda yaqqol ko‘rinib turibdi. 4-guruhda ST va LT ning 5-guruhdagi o‘xshash ko‘rsatkichlarga nisbatan mos ravishda 7% va 7,5% ga kamayishi aniqlandi. Ushbu ma'lumotlar lazer terapiyasining ayol psixikasiga taklif qiluvchi va neyrotransmitter vositachiligidagi ta'sirini ko‘rsatadi.

ISSN 3030-3907

Biokimyoviy parametrlarni baholashda, ayniqsa glyukoza bardoshlik testidan so‘ng (1 va 2-guruhlarda mos ravishda 15,5 va 17,2%), och qoringa glyukoza darajasining pasayishi kuzatildi (1-guruhda 9,4% ga va 2-guruhda 12,2% ga). Ro‘za tutish va ovqatdan keyingi glyukoza darajasi 1-guruhda 4,81±0,40 va 7,79±1,41 mmol/l, 2-guruhda 4,66±0,47 va 7,63±1,39 mmol/l, 3-guruhda 5,31±0,64 va 9,22±1,34 mmol/l ni tashkil etdi. Profilaktik terapiya fonida umumiy xolesterin konsentratsiyasi 7,7 va 8,4% ga (guruhlarda mos ravishda 4,53±0,22; 4,50±0,26 va 4,91±0,20 mmol/l), LDL esa 14,2 va 16,2% ga (1–3-guruhlarda mos ravishda 3,39±0,18; 3,31±0,16 va 3,95±0,15 mmol/l) kamaydi. Magnit lazer terapiyasi va kompleks davolash angioprotektiv xususiyatlarga ega bo‘lgan HDL konsentratsiyasining 9,6 va 11,2% ga (1,37±0,11; 1,39±0,10 va 1,25±0,14 mmol/l) oshishiga va 1-guruhda triglitseridlarning 8,2% ga (1,91±0,17 mmol/l), 2-guruhda esa 13,5% ga (1,80±0,15 mmol/l) pasayishiga olib keldi, bu 3-guruhga (2,08±0,21 mmol/l) nisbatan kuzatildi.

Ko‘rsatilgan dinamika 1 va 3-guruhlar o‘rtasida yuklamadan keyingi glyukoza, xolesterin kabi parametrlar uchun $p<0,05$ va LDL darajasi uchun $p<0,01$ bilan aniqlandi; 2 va 3-guruhlar o‘rtasida och qoringa glyukoza, xolesterin, HDL va triglitseridlar kabi parametrlar uchun $p<0,05$ va yuklamadan keyingi glyukoza va LDL darajasi uchun $p<0,01$ bilan.

MS rivojlanish xavfi past bo‘lgan ayollarda magnit lazer terapiyasi paytida biokimyoviy parametrlarda hech qanday o‘zgarishlar bo‘lmaganligi aniqlandi.

Uglevod va yog 'almashinuviga ta'siri, ehtimol, ikkita mexanizm orqali sodir bo‘ladi: metabolik faollashuv va to‘qima retseptorlari va gipotalamus tuzilmalari orqali tartibga soluvchi ta'sirlar. Birinchisi yog 'kislotalari va glyukozaning faol "yonishiga" olib keladi, ikkinchisi esa insulin qarshiligining pasayishiga olib keladi. Biokimyoviy parametrlarni to‘g‘irlashning chuqurroq biologik mexanizmlari mumkin, masalan, kortizol vositasida oqsil katabolizmini inhibe qilish, glyukoneogenez va yog 'kislotalari sintezining pasayishi va jinsiy steroidlar sintezining oshishi bilan xolesterin iste'molining ko‘payishi.

MS rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan ayollarda, erkin radikal oksidlanish mexanizmlariga dastlabki (abortdan oldingi) stressga qaramay, magnit lazer terapiyasi antioksidant fermentlarning sezilarli darajada faollashishi shaklida ijobiy terapevtik ta'sir ko‘rsatishi aniqlandi. Lazer terapiyasi o‘tkazilgan 1, 2 va 4-guruhlardagi katalaza darajasi 5-guruhga qaraganda yuqoriroq ($p < 0,05$) edi. Shuningdek, lazer terapiyasi muolajalari paytida superoksid dismutaza darajasi oshdi (1 va 2-guruhlarning ko‘rsatkichlaridagi farq $p < 0,05$ bo‘lgan 5-guruhga nisbatan). 3-guruh bilan antioksidant fermentlar qiymatlaridagi farqlar ahamiyatsiz, ammo bu holda taqqoslash unchalik foydali emas, chunki yuqorida

ISSN 3030-3907

ta'kidlanganidek, 3-guruhda erkin radikal oksidlanish mahsulotlarining sezilarli darajada oshishi fonida (fermentativ faollikning dekompensatsiyasi bilan) fermentlarning antioksidant faolligida biroz o‘sish kuzatildi.

Magnit lazer terapiyasi fonida katalaza va superoksid dismutaza konsentratsiyasining ortishi lipid peroksidlanish mahsulotlarining kamayishi bilan birga keldi: 2-guruhda 3-guruhga nisbatan malondialdegid va 1 va 2-guruhlarda 3-guruhga nisbatan dien konjugatlari.

MS rivojlanish xavfi past bo‘lgan ayollarda malondialdegid dien konjugatlari darajasi magnit lazer terapiyasidan keyin o‘zgarmaganligi, ammo katalaza darajasi sezilarli darajada oshgani - 4-guruhda 60,11±14,27 nmol/(ml·min) gacha, 5-guruhdagi 45,22±13,01 nmol/(ml·min) ga nisbatan ($p<0,05$).

Shunday qilib, magnit lazer terapiyasi sog‘lom ayollarda ham lipid peroksidlanish jarayonlarini faollashtiradi, ammo antioksidant fermentlarni faollashtirish orqali kompensator mexanizmlar tezda ishga tushiriladi, natijada organizmda oksidlovchi muvozanat hosil bo‘ladi.

Lazer terapiyasi paytida to‘qimalarning fotobioaktivatsiyasi, ehtimol, singlet kislorod shaklida eng kam tajovuzkor erkin radikallarning ishlab chiqarilishi bilan birga keladi, bu minimal zarar yetkazsa-da, endogen antioksidant himoyasini samarali ravishda rag‘batlantiradi. Bundan tashqari, lazer terapiyasi, erkin radikallarning shakllanishi bilan birga, boshqa sanogenetik mexanizmlarni ham ishga tushiradi. Ulardan biri elektronlarning boshqa orbitalarga o‘tishi bo‘lib, butun molekulyar kompleksni faollashtiradi, bu fermentlar, retseptorlar faolligining o‘zgarishi va sezuvchanlik chegarasi sifatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Kuzatuvning 18-oyida klinik alomatlarni baholash homiladorlikni sun'iy ravishda to‘xtatishdan keyin metabolik sindrom rivojlangan bemorlarni aniqlash imkonini berdi. Yuqori xavf guruhida metabolik sindrom 65 bemorning 38 tasida (58,5%), 2-guruhda 69 bemorning 37 tasida (53,6%) va 3-guruhda 75 bemorning 69 tasida (92%) tashxis qo‘yilgan. Past xavf guruhida metabolik kasalliklar atigi uchta holatda rivojlangan, ulardan biri magnit lazer terapiyasi bilan bog‘liq edi.

Ayol tibbiy muassasada abort qilishni so‘raganida, tibbiy psixolog bilan maslahatlashuv zarur. Ikkinchi bosqich - akusher/ginekolog bilan suhbat bo‘lib, uning davomida shifokor bemorni quyidagi xavf guruhlaridan biriga ajratadi:

1. Yallig‘lanish kasalliklari rivojlanishi uchun yuqori xavf guruhi.

Mezonlar: surunkali infeksiyalar, o‘tkir bakterial va virusli infeksiyalar, jinsiy yo‘l bilan yuqadigan kasalliklar, yuqori infeksiya indeksi, shuningdek, tez-tez jarrohlik aralashuvlar va boshqalar.

2. Neyroendokrin kasalliklar rivojlanishi uchun yuqori xavf guruhi.

ISSN 3030-3907

Bemorlarning ushbu guruhga kiritilishi taklif qilingan asl matematik model yordamida aniqlanadi. Mezonlarga quyidagilar kiradi: hayz ko‘rishning buzilishi, hirsutizm, homiladorlik soni, menarxe yoshi, infeksiya indeksi, ortiqcha tana vazni, qon bosimi va boshqalar.

3. Abortdan keyin asoratlar rivojlanishi uchun past xavf guruhi.

Operatsiyadan oldin mikrobial omillar va psixologik stressning muhim rolini hisobga olgan holda, barcha bemorlar vaginal dezinfektsiya, sedativ vositalar va psixoterapiya kabi preinvaziv antibiotik profilaktikasi kursidan o‘tadilar. Sun'iy abortdan so‘ng, asoratlar xavfi past bo‘lgan ayollar standart choralarni, jumladan, og‘iz orqali qabul qilinadigan gemostatik vositalarni (qichitqi o‘t damlamasi), kaltsiy qo‘shimchalarini va og‘iz orqali qabul qilinadigan kontratseptivlarni oladilar. Tos a'zolarining yallig‘lanish kasalliklari rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan bemorlarga standart choralardan tashqari, 5-6 kun davomida antibakterial va antimikrobiyal vositalarni qabul qilish tavsiya etiladi. Metabolik va neyroendokrin kasalliklar rivojlanish xavfi yuqori bo‘lgan ayollarga magnit lazer terapiyasi, sedativ vositalar, antioksidantlar, vazn yo‘qotish uchun parhez, etarli jismoniy mashqlar va xulq-atvor terapiyasini o‘z ichiga olgan kompleks profilaktik terapiya buyuriladi. Metabolik kasalliklarning oldini olish 1-2 yil davomida davom ettirilishi kerak. Keyin ular MS ni tashxislashning eng ko‘rsatkichli, tejamkor va qulay usuli bo‘lgan glyukoza bardoshlik testidan o‘tadilar. Agar bemorlarda hayz ko‘rish tartibsizliklari yoki vazn ortishi kuzatilsa, skrining 12 oydan oldinroq o‘tkazilishi mumkin.

Agar qonda glyukoza darajasi normal bo‘lsa va klinik alomatlar bo‘lmasa, bemor odatdagi ambulatoriya kuzatuv rejimiga o‘tkaziladi. Agar glyukoza darajasi ko‘tarilsa yoki MS ning boshqa klinik belgilari mavjud bo‘lsa, ayol tashxisni aniqlashtirish va davolash rejasini ishlab chiqish uchun endokrinolog bilan maslahatlashuvni o‘z ichiga olgan holda batafsilroq tekshiruvdan o‘tishi kerak.

Taklif qilingan algoritmdan foydalanish yuqori xavfli bemorlarni o‘z vaqtida aniqlash va ularga profilaktika terapiyasini o‘tkazish imkonini beradi, shu bilan abortdan keyin ham yallig‘lanishli genital kasalliklar, ham MS ning aniq shakllari rivojlanishining oldini oladi.

XULOSALAR.

1. Biz taklif qilgan usuldan foydalangan holda magnit lazer terapiyasi yuqori xavf ostida bo‘lgan ayollarning 33,5 foizida abortdan keyin metabolik sindrom rivojlanishining oldini oladi. Magnit lazer terapiyasining parhez ovqatlanishi, jismoniy faollikni oshirish, multivitaminlar (antioksidantlar) va mikroelementlar hamda boshqa fizioterapiya bilan birgalikda metabolik sindrom rivojlanish xavfi

ISSN 3030-3907

yuqori bo‘lgan ayollarning 38,4 foizida sun'iy abortdan keyin metabolik kasalliklar rivojlanishining oldini oladi.

2. Abort qilishni istagan ayollarni boshqarish uchun taklif qilingan algoritm abortdan keyin asoratlar xavfi yuqori bo‘lgan bemorlarni o‘z vaqtida aniqlash, ularni dinamik monitoring qilish va metabolik kasalliklarning paydo bo‘lishini kamaytirish uchun oldindan shakllangan jismoniy omillardan foydalangan holda etarli profilaktika qilish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Беляков Н.А. и др. Метаболический синдром у женщин (Патофизиология и клиника). — СПб.: Издательский дом СПбМАПО, 2005.
2. Гуревич В.С., Конторщикова К.Н., Шатилина Л.В. Сравнительный анализ двух методов определения активности супероксиддисмутазы // Лаб. дело. — 1990. — № 4. — С.44—47.
3. Дамиров М.М. Лазерные, криогенные и радиоволновые технологии в гинекологии. — М.: ООО «БИНОМ-Пресс», 2004.
4. Елисеев О.П. Практикум по психологии личности. — СПб.: «Питер». 2007.
5. Зубкова С.М. Антиоксидантные и биоэнергетические эффекты лазерной терапии //Физиотерапия, бальнеология и реабилитация. — 2003. –№ 3. — С. 3—12.
6. Королюк М.А. и др. Метод определения активности каталазы // Лаб. дело. — 1988. — № 1. — С.16—19.
7. Подзолкова Н.М., Подзолков В.И. Метаболический синдром у женщин: две грани единой проблемы // Акуш. и гин. — 2003. — № 6. — С. 28—33.
8. Прилепская В.Н., Цаллагова Е.В. Патогенетические аспекты ожирения и нарушения репродуктивной функции женщины // Акуш. и гин. — 2006. — № 5. — С.24—28.
9. Серов В.Н., Силантьева Е.С., Ипатова М.В., жаров Е.В. Безопасность физиотерапии у гинекологических больных // Акуш. и гин. — 2007. — № 3. — С. 74—78.
10. Современные методы в биохимии /Под ред. В.Н. Ореховича. — М.: «Медицина», 1997.
11. Фролова О.Г. и др. Аборт (медико-социальные и клинические аспекты). — М.: «Триада-Х», 2003.
12. Юсупова А.Н. Аборты в России / Под ред. В.Ю. Альбицкого. — М.: ГЭОТАР-МЕД, 2004.
13. Бессен Д.Г., Кушнер Р. Избыточный вес и ожирение. Пер с англ. — М.: ЗАО «Издательство БИНОМ», 2004.

ISSN 3030-3907

14. Bjontorp P., Rosmond R.The metabolic syndrome — a neuroendocrine disorder? // Br. J. Nutr. — 2000. — Vol. 83. (Suppl. 1). — P. 49—57.
15. Das U.N. Metabolic syndrome X: an inflammatory condition? // Curr. Hypertens. ReP. — 2004. — Vol. 6. — P. 66—73.
16. Jiac W.P., Xiang K.S., Chen L. et al. Epidemiological study on obesity and its comorbidities in urban Chinese older than 20 years of age in Shanghai, China // Obes. Rev. — 2002. — Vol. 3. — P. 157—165.
17. Pankow J.S., Jacobs D.R., Steinberger J. et al. Insulin resistance and cardiovascular disease risk factors in children of parents with the insulin resistance (metabolic) syndrome // Diabetes Care. — 2004. — Vol. 27, № 3. — P. 775—780.
18. Skrha J., Haas T., Sindelka G. et al. Comparison of the insulin action parameters from hyperinsulinemic clamps with homeostasis model assessment and QUICKI indexes in subjects with different endocrine disorders // J. Clin. Endocninol. Metab. — 2004. — Vol. 89, № 1. — P. 135—141.
19. Zimmet P., Alberti K.G., Shaw J. Global and societal implications of the diabetes epidemic // Nature. — 2001. — Vol. 414. — P. 782—787.

ISSN 3030-3907

ASINXRON DVIGATELLARNI HOLAT DATCHIKLARI ASOSIDA MASOFADAN MONITORING VA BOSHQARISH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH

Nizamov Jasurbek Abdushukurovich
Andijon davlat texnika instituti, Elektr muhandisligi kafedrasi dotsenti
E-mail: jasurnizamov92@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada asinxron dvigatellarni holat datchiklari asosida masofadan monitoring va boshqarish tizimini ishlab chiqish masalasi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Tadqiqotning dolzarbligi sanoat korxonalarida elektr yuritmalarning ishonchliligini oshirish, ularning uzluksiz ishlashini ta’minlash hamda energiya samaradorligini yuksaltirish zarurati bilan belgilanadi. Ishda dvigatelning asosiy ish parametrlarini, jumladan tok, kuchlanish, harorat va vibratsiya ko‘rsatkichlarini real vaqt rejimida o‘lchash va uzatishga mo‘ljallangan datchiklar asosidagi monitoring tizimi taklif etilgan. Ushbu tizim yordamida dvigatel holatini masofadan turib uzluksiz nazorat qilish va boshqarish imkoniyati yaratiladi. Natijada nosozliklarni erta bosqichda aniqlash, texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirish ta’minlanadi. Taklif etilgan yondashuv sanoat avtomatlashtirish tizimlarida keng qo‘llanish imkoniyatiga ega.

Kalit so‘zlar: asinxron dvigatel, masofaviy monitoring, holat datchiklari, masofadan boshqarish tizimi, elektr yuritma, texnik diagnostika, energiya samaradorligi, sanoat avtomatlashtirish.

Аннотация. В данной статье научно обоснована разработка системы дистанционного мониторинга и управления асинхронными двигателями на основе датчиков состояния. Актуальность исследования обусловлена необходимостью повышения надежности, обеспечения непрерывности работы и повышения энергоэффективности электрических приводов в промышленности. В работе предложена система, основанная на датчиках, предназначенных для измерения основных параметров работы двигателя, таких как ток, напряжение, температура и вибрация, в режиме реального времени. Разработанный подход обеспечивает возможность непрерывного дистанционного контроля и управления состоянием двигателя. В результате достигается раннее выявление неисправностей, повышение эффективности технического обслуживания и снижение эксплуатационных затрат. Предложенная система обладает высоким потенциалом применения в современных системах промышленной автоматизации.

Ключевые слова: асинхронный двигатель, дистанционный мониторинг, датчики состояния, система дистанционного управления, электропривод,

ISSN 3030-3907

техническая диагностика, энергоэффективность, промышленная автоматизация.

Annotation. This paper presents a scientifically grounded approach to the development of a remote monitoring and control system for induction motors based on state sensors. The relevance of the study is determined by the need to enhance the reliability, operational continuity, and energy efficiency of electric drives in industrial systems. The proposed system is based on sensors designed to measure key operating parameters of the motor, including current, voltage, temperature, and vibration, in real time. The developed approach enables continuous remote monitoring and control of motor conditions. As a result, early fault detection, improved maintenance efficiency, and reduced operational costs are achieved. The proposed solution demonstrates significant potential for implementation in modern industrial automation systems.

Keywords: induction motor, remote monitoring, state sensors, remote control system, electric drive, condition diagnostics, energy efficiency, industrial automation

KIRISH.

Hozirgi kunda sanoat korxonalarida energiya resurslaridan oqilona foydalanish, texnologik jarayonlarning uzluksizligini ta’minlash hamda ishlab chiqarish tizimlarining ishonchliligini oshirish ustuvor vazifalardan biri hisoblanadi. Ushbu jarayonlarda asinxron dvigatellar eng keng qo‘llaniladigan elektr yuritma qurilmalari sifatida muhim o‘rin egallaydi. Ularning konstruktiv soddaligi, yuqori ishonchliligi va ekspluatatsiya qulayligi sababli turli sanoat tarmoqlarida keng qo‘llanilishiga qaramay, ularning texnik holatini o‘z vaqtida nazorat qilmaslik jiddiy nosozliklarga, ishlab chiqarish jarayonlarining to‘xtab qolishiga va ortiqcha energiya sarfiga olib kelishi mumkin.

Sanoatda raqamli texnologiyalar, masofaviy boshqaruv tizimlari hamda aqlli monitoring yechimlarining jadal rivojlanishi elektr yuritmalarni nazorat qilish usullarini tubdan takomillashtirishni talab etmoqda. An’anaviy nazorat va diagnostika usullari asosan davriy tekshiruvlarga asoslangan bo‘lib, ular dvigatelning real vaqt rejimidagi holatini to‘liq aks ettira olmaydi hamda nosozliklarni erta aniqlash imkonini bermaydi. Shu sababli zamonaviy sanoat sharoitida uzluksiz ishlovchi, real vaqt monitoringini ta’minlovchi va masofadan boshqarish imkoniyatiga ega tizimlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy-amaliy masala hisoblanadi

Mavjud ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, asinxron dvigatellarni diagnostika qilishda tok, kuchlanish, harorat va vibratsiya kabi parametrlarni o‘lchash keng qo‘llaniladi. Biroq aksariyat tadqiqotlarda monitoring tizimlari lokal

ISSN 3030-3907

xarakterga ega bo‘lib, masofaviy boshqaruv va markazlashgan nazorat funksiyalari yetarli darajada integratsiyalashmagan. Natijada dvigatelning texnik holatini kompleks baholash va uni masofadan turib samarali boshqarish imkoniyatlari cheklangan holda qolmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi asinxron dvigatellarning ish parametrlarini holat datchiklari yordamida real vaqt rejimida monitoring qilish, ularning texnik holatini baholash hamda masofadan boshqarish imkonini beruvchi zamonaviy tizimni ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot doirasida ko‘p parametrli datchiklar asosida ishlovchi monitoring tizimi, ma’lumotlarni uzatish va qayta ishlash mexanizmlari hamda boshqaruv algoritmlari ishlab chiqiladi.

Mazkur tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda asinxron dvigatellarning texnik holatini baholash uchun holat datchiklariga asoslangan, real vaqt monitoringi va masofaviy boshqaruv funksiyalarini birlashtiruvchi integratsiyalashgan tizim taklif etiladi. Ushbu yondashuv dvigatel ish jarayonini uzluksiz nazorat qilish, nosozliklarni erta aniqlash va energiya samaradorligini oshirish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

So‘nggi yillarda asinxron dvigatellarning texnik holatini diagnostika qilish va monitoring qilish bo‘yicha keng qamrovli ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Mavjud ishlarda asosan stator toki signallarini tahlil qilish orqali elektr nosozliklarni aniqlash usullari qo‘llanilib, ular yuqori aniqlikka ega bo‘lsa-da, murakkab hisoblash jarayonlarini talab qiladi va real vaqt rejimida qo‘llash imkoniyatlari cheklangan.

Vibratsiya signaliga asoslangan diagnostika usullari mexanik nosozliklarni aniqlashda samarali hisoblanadi, biroq tashqi shovqinlarga sezgirligi sababli sanoat sharoitida barqaror ishlash muammolari kuzatiladi. Harorat monitoringi esa dvigatelning issiqlik holatini baholashda muhim bo‘lsa-da, uning inertligi tufayli nosozliklarni erta aniqlash imkoniyati past hisoblanadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda ko‘p parametrli monitoring tizimlariga e’tibor kuchaygan bo‘lib, ular diagnostika aniqligini oshiradi. Shu bilan birga, IoT texnologiyalariga asoslangan yechimlar orqali masofaviy monitoring imkoniyatlari kengaymoqda. Biroq mavjud ishlarda aksariyat tizimlar faqat monitoring bilan cheklanib, boshqaruv funksiyalari yetarli darajada integratsiyalashmagan.

Shuningdek, sun’iy intellekt asosidagi diagnostika usullari yuqori samaradorlikni ta’minlasa-da, katta hajmdagi ma’lumotlar va murakkab model qurishni talab qiladi, bu esa ularni amaliy joriy etishni qiyinlashtiradi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko‘rsatadiki, mavjud yondashuvlar asosan alohida parametrlar yoki lokal monitoring bilan cheklanadi hamda masofaviy monitoring

ISSN 3030-3907

va boshqaruvni yagona tizimda birlashtiruvchi integratsiyalashgan yechimlar yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Shu sababli kompleks, real vaqt rejimida ishlovchi va masofaviy boshqaruv imkoniyatiga ega tizimlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI.

Mazkur tadqiqotda asinxron dvigatellarning texnik holatini uzluksiz monitoring qilish va masofadan boshqarish imkonini beruvchi ko‘p parametrli, integratsiyalashgan tizim ishlab chiqildi. Taklif etilgan metodologiya uch bosqichli arxitekturaga asoslanadi: ma’lumotlarni yig‘ish (sensor darajasi), ma’lumotlarni qayta ishlash va uzatish (mikrokontroller va IoT moduli), hamda boshqaruv va tahlil (server yoki SCADA interfeysi).

Sensor darajasida dvigatelning ish rejimini aniqlovchi asosiy fizik kattaliklar — tok, kuchlanish, harorat va vibratsiya parametrlarini o‘lchovchi holat datchiklari qo‘llanildi. Ushbu parametrlar dvigatelning elektr va mexanik holatini kompleks baholash imkonini beradi. Sensorlardan olingan signallar analog ko‘rinishdan raqamli ko‘rinishga o‘tkazilib, raqamli filtratsiya yordamida shovqinlardan tozalanadi.

Hisoblash bosqichida dvigatelning energetik ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Aktiv quvvat quyidagi ifoda orqali hisoblanadi:

$$P = U \cdot I \cdot \cos$$

Dvigatelning energiya samaradorligini baholash uchun foydali ish koeffitsienti aniqlanadi:

$$\eta = \frac{P_{\text{out}}}{P_{\text{in}}}$$

bu yerda

Pout — mexanik chiqish quvvati,

Pin — elektr kirish quvvati.

Ko‘p parametrli monitoringni amalga oshirish uchun barcha o‘lchangan kattaliklar normallashtiriladi, bu esa ularni yagona mezon asosida taqqoslash imkonini beradi:

$$X_n = \frac{X - X_{min}}{X_{max} - X_{min}}$$

ashtirilgan parametrlar asosida dvigatelning umumiy texnik holatini baholovchi integral ko‘rsatkich joriy etildi:

$$S = w_1 I_n + w_2 U_n + w_3 T_n + w_4 V_n$$

bu yerda InUn,Tn,Vn — mos ravishda normallashtirilgan tok, kuchlanish, harorat va vibratsiya qiymatlari, wi — og‘irlik koeffitsientlari bo‘lib, ular quyidagi shartni qanoatlantiradi:

ISSN 3030-3907

$$\sum_{i=1}^{4} w_i = 1$$


Taklif etilgan tizim algoritmi quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi: dastlab sensorlardan ma’lumotlar olinadi, keyin ular raqamlashtiriladi va filtrlanadi. So‘ngra parametrlar normallashtiriladi va umumiy holat indeksi hisoblanadi. Agar S qiymati oldindan belgilangan kritik chegaradan oshsa, tizim avtomatik ravishda ogohlantirish signalini generatsiya qiladi yoki boshqaruv komandasi yuboradi. Boshqaruv mexanizmi dvigatelni o‘chirish, yuklamani kamaytirish yoki ish rejimini optimallashtirish orqali amalga oshiriladi.

Mazkur metodologiyaning asosiy afzalligi shundaki, u dvigatelning texnik holatini kompleks baholash, real vaqt rejimida monitoringni amalga oshirish va masofadan boshqaruvni yagona tizimda integratsiyalash imkonini beradi. Ushbu yondashuv sanoat korxonalarida elektr yuritmalarning ishonchliligini oshirish, nosozliklarni erta aniqlash hamda energiya samaradorligini oshirishda samarali yechim sifatida xizmat qiladi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Mazkur tadqiqotda asinxron dvigatellarni holat datchiklari asosida masofadan monitoring qilish va boshqarish tizimining ishlashi ishlab chiqilgan algoritm asosida tahlil qilindi. Taklif etilgan tizimda dvigatelning asosiy parametrlarini real vaqt rejimida o‘lchash, tahlil qilish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish jarayoni bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Tizimning ishlash algoritmi quyidagi rasmda keltirilgan:

ISSN 3030-3907



1-rasm. Masofaviy monitoring va boshqaruv tizimining algoritmi

Mazkur algoritmga ko‘ra, tizimning ishlashi “Boshlash” bosqichidan boshlanadi va dastlab datchiklar orqali dvigatelning ish parametrlari — tok, kuchlanish, harorat va vibratsiya qiymatlari o‘qib olinadi. Keyingi bosqichda olingan ma’lumotlar tahlil qilinadi va ular asosida dvigatelning joriy holati baholanadi.


Algoritmning muhim qismi bu kritik holatni aniqlash bosqichidir. Agar o‘lchangan parametrlar belgilangan me’yoriy chegaralarda bo‘lsa, tizim normal ishlash rejimini davom ettiradi va monitoring jarayoni uzluksiz ravishda davom etadi. Aksincha, agar parametrlar kritik qiymatlardan oshsa, tizim avtomatik ravishda ogohlantirish signalini shakllantiradi va boshqaruv choralarini ishga tushiradi.

Taklif etilgan algoritm dvigatel holatini uzluksiz kuzatish, nosozliklarni erta aniqlash va avariya holatlarining oldini olish imkonini beradi. Ayniqsa, real vaqt rejimida ishlash va avtomatik qaror qabul qilish mexanizmining mavjudligi tizimning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Nazariy model asosida olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, algoritm asosida ishlovchi tizim dvigatelning ish rejimidagi o‘zgarishlarga tezkor javob qaytaradi va kritik holatlarni yuqori aniqlik bilan aniqlaydi. Bu esa texnik xizmat ko‘rsatish jarayonini optimallashtirish va ekspluatatsiya xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shuningdek, algoritmning moslashuvchanligi turli sanoat sharoitlarida qo‘llash imkonini beradi, bu esa uning amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

ISSN 3030-3907

Quyidagi grafiklarda asinxron dvigatelning ishga tushish va o‘tkinchi rejimdagi asosiy parametrlarining vaqt bo‘yicha o‘zgarishi ko‘rsatilgan.



2-rasm. Asinxron dvigatelning tezlik (a), elektromagnit moment (b) va stator toki (c) grafiklari

Mazkur rasm uchta asosiy grafikdan iborat bo‘lib, dvigatelning dinamik ish jarayonini kompleks tarzda tavsiflaydi.

(a) Tezlik grafigi

Grafikdan ko‘rinadiki, dvigatel ishga tushish vaqtida yuqori boshlang‘ich tezlik qiymatiga ega bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan u barqaror holatga keladi. Tezlikning asta-sekin kamayib barqarorlashuvi dvigatelning yuklama ostida ishlash rejimiga o‘tganligini bildiradi. Bu jarayon dvigatelning mexanik va elektromexanik muvozanatga kelishini ko‘rsatadi.

(b) Elektromagnit moment grafigi


Elektromagnit momentning vaqt bo‘yicha o‘zgarishi tebranishli (pulsatsiyali) xarakterga ega ekanligi kuzatiladi. Ishga tushish jarayonida moment qiymati ortib boradi va keyinchalik ma’lum bir diapazonda tebranib barqarorlashadi. Bu holat dvigatelning aylanish jarayonida elektromagnit kuchlarning davriy ta’siri bilan izohlanadi.

(c) Stator toki grafigi

Stator toki ishga tushish vaqtida keskin o‘zgaruvchan bo‘lib, katta amplitudali qiymatlarga ega. Vaqt o‘tishi bilan tokning qiymati nisbatan barqarorlashadi, biroq unda hali ham periodik tebranishlar mavjud. Bu esa dvigatelning elektr yuklama ostida ishlashini va tokning elektromagnit jarayonlarga bog‘liqligini ko‘rsatadi

ISSN 3030-3907

Grafik dvigatel haroratining ish jarayonida vaqt bo‘yicha o‘zgarishini ko‘rsatadi.



6-rasm. Chulg‘am haroratining vaqt bo‘yicha (chap) va yuklama koeffitsientiga bog‘liq (o‘ng) o‘zgarish grafigi

Mazkur rasm ikki qismdan iborat bo‘lib, asinxron dvigatel chulg‘amining issiqlik jarayonlarini turli sharoitlarda baholash imkonini beradi.

(a) Vaqt bo‘yicha harorat o‘zgarishi:

Chap grafikda dvigatel chulg‘amining harorat o‘sishi vaqt funksiyasi sifatida keltirilgan. Grafiklardan ko‘rinadiki, barcha holatlarda harorat dastlab tez oshadi, keyinchalik esa issiqlik muvozanati natijasida barqarorlashadi.

IE1, IE2, IE3 va IE4 samaradorlik sinflari bo‘yicha tahlil shuni ko‘rsatadiki:

IE1 (past samaradorlik) dvigatellarda harorat eng yuqori qiymatga yetadi

IE4 (yuqori samaradorlik) dvigatellarda harorat o‘sishi minimal darajada bo‘ladi


Bu holat energiya yo‘qotishlarining issiqlikka aylanish darajasi bilan bevosita bog‘liq.(b) Yuklamaga bog‘liq harorat o‘zgarishi:O‘ng grafikda chulg‘am haroratining yuklama koeffitsienti (k) ga bog‘liqligi ko‘rsatilgan. Grafikdan ko‘rinadiki, yuklama ortishi bilan harorat nolinear tarzda oshadi.Quyidagi muhim xulosalar aniqlangan:Yuklama ortishi bilan issiqlik ajralishi keskin ortadiPast samaradorlikdagi dvigatellarda (IE1) harorat tezroq oshadi Yuqori samaradorlikdagi dvigatellarda (IE3, IE4) issiqlik yo‘qotishlari kamroq Shuningdek, grafikda ko‘rsatilganidek, dvigatel samaradorligi oshishi bilan: foydali quvvat ($Pshaft$) ortadi ishonchlilik (MTBF) yaxshilanadi umumiy energiya samaradorligi (η oshadi

Mazkur grafiklar tahlili shuni ko‘rsatadiki, asinxron dvigatelning issiqlik rejimi uning yuklanish darajasi va energetik samaradorligiga bevosita bog‘liq. Haroratning ortishi dvigatel izolyatsiyasining eskirishiga olib keladi va bu uning xizmat muddatini qisqartiradi.

ISSN 3030-3907

Shu sababli dvigatelning harorat parametrini doimiy monitoring qilish va uni optimallashtirish elektr yuritmalar ishonchliligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Bu esa mazkur maqolada taklif etilgan monitoring tizimining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Quyidagi grafiklarda asinxron dvigatel signallarining chastota sohasidagi spektral tahlili (FFT – Fast Fourier Transform) natijalari keltirilgan.



4-rasm. Dvigatel signallarining chastota spektri: (a) normal holat, (b) nosozlik mavjud holat, (c) filtrlangan signal

Mazkur rasm uchta spektral grafikdan iborat bo‘lib, dvigatelning turli ish holatlaridagi chastota komponentlarini tahlil qilish imkonini beradi.

(a) Normal ish holati

Birinchi grafikda dvigatelning normal ish rejimidagi signal spektri ko‘rsatilgan. Grafikda asosiy chastota komponentlari (masalan, 50 Hz asosiy tarmoq chastotasi va uning garmoniklari 100 Hz, 200 Hz) aniq kuzatiladi. Amplituda qiymatlari nisbatan barqaror bo‘lib, keskin ortishlar mavjud emas. Bu dvigatelning sog‘lom va barqaror ishlayotganini ko‘rsatadi.

(b) Nosozlik mavjud holat:

Ikkinchi grafikda dvigatelda nosozlik mavjud bo‘lgan holat aks ettirilgan. Grafikda “fault indicator” sifatida belgilangan chastotalarda amplituda keskin oshgani kuzatiladi. Bu komponentlar odatda quyidagi nosozliklarga bog‘liq bo‘lishi mumkin:

podshipnik nuqsonlari

ISSN 3030-3907

rotor nosimmetriyasi
eksantriklik yoki balans buzilishi

Spektrda yangi piklarning paydo bo‘lishi yoki mavjud komponentlarning keskin kuchayishi dvigatelda muammo borligini aniq ko‘rsatadi.

(c) Filtrlangan signal:

Uchinchi grafikda signal filtratsiyadan o‘tkazilgandan keyingi holat ko‘rsatilgan. Shovqin komponentlari kamaygan va asosiy diagnostik chastotalar yanada aniq ajralib turadi. Bu esa signalni qayta ishlash usullarining samaradorligini va diagnostika aniqligini oshirishini tasdiqlaydi.

Mazkur spektral tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, chastota sohasida signalni tahlil qilish dvigatel nosozliklarini aniqlashda yuqori aniqlikka ega usul hisoblanadi. Ayniqsa, garmonik komponentlarning o‘zgarishi va yangi spektral piklarning paydo bo‘lishi dvigatelning texnik holatini baholashda muhim diagnostik mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Taklif etilgan monitoring tizimiga spektral tahlilni integratsiya qilish orqali nosozliklarni erta aniqlash va texnik xizmat ko‘rsatishni optimallashtirish mumkin. Bu esa dvigatelning ishlash ishonchliligini oshirish va avariya holatlarining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

1-Jadval

Asinxron dvigatel parametrlarining model asosida o‘zgarishi

№	Ish rejimi	Tok (A)	Harorat (°C)	Vibratsiya (mm/s)	Holat indeksi (S)
1	Bo‘sh yurish	2.0	30	0.7	0.22
2	Nominal yuklama	5.1	65	1.6	0.57
3	Ortiqcha yuklama	7.8	98	3.6	0.93

Jadval va grafiklar natijalari shuni ko‘rsatadiki, dvigatel yuklamasi ortishi bilan barcha parametrlar o‘zaro bog‘liq holda oshadi. Ayniqsa, harorat va vibratsiya parametrlarining keskin ortishi dvigatelning texnik holati yomonlashayotganini aniq ko‘rsatadi.Integral baholash ko‘rsatkichi holat indeksi S qiymatining ortishi tizim tomonidan xavfli holat sifatida identifikatsiya qilinadi. Bu esa ko‘p parametrli monitoring yondashuvining samaradorligini tasdiqlaydi.Taklif etilgan tizimning asosiy ustunligi shundaki, u alohida parametrlarni emas, balki ularning kompleks o‘zaro ta’sirini hisobga olgan holda dvigatel holatini baholaydi. Natijada nosozliklarni erta aniqlash, avariya holatlarining oldini olish va texnik xizmat ko‘rsatish samaradorligini oshirish imkoniyati yaratiladi.

ISSN 3030-3907

Shuningdek, tizimning masofaviy boshqaruv funksiyasi orqali kritik holatlarda dvigatelni avtomatik o‘chirish yoki yuklamani kamaytirish mumkin. Bu esa sanoat tizimlarida xavfsizlik darajasini sezilarli oshiradi va ekspluatatsion ishonchlilikni ta’minlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR. Mazkur tadqiqotda asinxron dvigatellarni holat datchiklari asosida masofadan monitoring qilish va boshqarish tizimi grafik, jadval va spektral tahlillar asosida kompleks baholandi. Olingan natijalar dvigatel ish jarayonida tezlik, tok va elektromagnit moment parametrlarining o‘zaro bog‘liqligini hamda ishga tushish davrida o‘tkinchi rejimdan barqaror holatga o‘tishini ko‘rsatdi. Harorat va yuklama grafiklari tahlili dvigatelning issiqlik rejimi yuklanish darajasiga bevosita bog‘liq ekanligini, ayniqsa past samaradorlik sinfidagi dvigatellarda issiqlik yo‘qotishlari yuqori bo‘lishini tasdiqladi. Spektral (FFT) tahlil natijalari esa nosozliklarni chastota komponentlari orqali aniqlash yuqori aniqlikka ega ekanligini ko‘rsatdi.Jadval natijalariga ko‘ra, yuklama ortishi bilan tok, harorat va vibratsiya parametrlarining birgalikda oshishi hamda integral holat indeksi *S* qiymatining kritik darajaga yaqinlashishi dvigatel texnik holatini ishonchli baholash imkonini beradi.

Umuman, ko‘p parametrli monitoring va masofaviy boshqaruv tizimi dvigatel nosozliklarini erta aniqlash, ekspluatatsiya ishonchliligini oshirish va energiya samaradorligini yaxshilashda samarali yechim ekanligi aniqlandi.

TAKLIFLAR.

Dvigatellarda ko‘p parametrli (tok, harorat, vibratsiya) monitoring tizimlarini joriy etish zarur.

Nosozliklarni aniqlashda spektral (FFT) tahlil usullaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

Energiya samaradorligini oshirish uchun yuqori samaradorlik sinfidagi (IE3–IE4) dvigatellardan foydalanish maqsadga muvofiq.

IoT asosidagi masofaviy monitoring va boshqaruv tizimlarini sanoatda keng qo‘llash lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

